

UO'K:821

P-44

M. PIRNAZAROVA, N. SOBIROVA, N. MATYAZOVA

**UMUMTA'LIM
MAKTABLARIDA
ADABIYOT O'QITISHNING
AYRIM MASALALARI**



Фойдаланувчи китобни
кайтириб топшириш
муддатини белгилаб бориш

Фойдаланувчи аъзолик номери	Китобни кайтириш муддати

84

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

M.M.Pirnazarova, N.Sobirova, N.Matyazova

**UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA
ADABIYOT O'QITISHNING AYRIM
MASALALARI**



Toshkent
«Turon zamin ziyo»
2015

UO'K: 821.512.092
KBK: 84(50)'7
P-44

Pirnazarova, Manzura

Umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitishning ayrim masalalari /
M.Pirnazarova, N.Sobirova, N.Matyazova. – T.: «Turon zamin ziyo» nashriyoti,
2015. – 72 b.

I. Sobirova, N.

II. Matyazova, N

ISBN 978-9943-4539-3-7

Mazkur uslubiy qo'llanmada umumta'lim maktablari V va VI sinflarida adabiyot o'qitishning ayrim masalalari o'z yechimini topgan. Yozuvchi biografiyasini o'rgatish, folklor asarlarini o'qitishdagi ayrim tajribalar, ifodali o'qish malakasini egallash kabi qator masalalar qo'llanmadan o'rin olgan.

Qo'llanma umumta'lim maktablari til va adabiyot o'qituvchilariga yordam tariqasida tavsiya qilinadi.

UO'K: 821.512.092
KBK: 84(50)'7

Mas'ul muharrir:
S.R.Ro'zimboyev,
professor.

Taqrizchilar:
G.O.Eshchanova,
dotsent;

S.M.Sariyev,
dotsent

Urganch davlat universiteti ilmiy-uslubiy kengashi va Xorazm viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti ilmiy kengashi tomonidan 2015-yil 29-iyun 2-sonli majlisida muhokama etilib nashr etishga tavsiya qilingan.

ISBN 978-9943-4539-3-7

© M.Pirnazarova,
© «Turon zamin ziyo»,
Toshkent, 2015.

KIRISH

Hozirgi davrning dolzarb masalalaridan biri yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish jarayonini jahon andozalari darajasiga olib chiqishdir. Bu muhim, lekin mashaqqatli vazifani amalga oshirish uchun hali juda ko'p ishlarni qayta tashkil qilishga to'g'ri keladi.

Mamlakatimiz milliy istiqlolni qo'lga kiritgandan keyingina ta'lim-tarbiya tizimini tubdan qayta qurish masalasi kun tartibiga qo'yildi. Buyuk ma'naviyatimizni qayta tiklash va yanada yuksaltirish, yoshlarga bilim berishni takomillashtirish, uning milliy zaminini zamon talablariga uyg'unlashtirish asosiy maqsad qilib qo'yildi.

Ta'lim-tarbiya zamon talablari asosida tobora takomillashib boradi. Prezidentimiz I.A.Karimovning ta'kidlashicha, "Toki hayot davom etar ekan, ta'lim ham, tarbiya ham zamon o'rta qo'yayotgan yangi-yangi talablarga ko'ra muttasil ravishda o'zgarib-yangilanib boraveradi"¹. Shunday ekan, umumta'lim maktablarida o'qitilayotgan adabiyot fanini o'rgatish usullarining takomillashtirib borilishi ham zamon talablaridan orqada qolmasligi kerak. Chunki adabiyot o'qitishning ilg'or usullari haligacha ta'lim-tarbiya sohasida keng quloch yoymadi.

"Adabiyot o'qitishda o'rganilgan asarning mazmunini so'zlab berish bilan cheklanishday adabiy ta'lim amaliyoti uchun yaroqsiz bo'lgan tajribadan voz kechish payti allaqachon kelgan. O'quvchiga voqealar emas, ruhiyat manzaralari, tuyg'ularning samimiyati ta'sir etadi. O'shanda bolaning ruhiyati yuksaladi, tuyg'ulari tozaradi. Shu bois adabiyot o'qituvchilari asosiy e'tiborlarini o'rganilayotgan badiiy matnning jozibasini ochish yo'llarini kashf etishga qaratishlari lozim. Buning uchun bolalar oldiga qiziqarli va o'rinli savollar qo'yishlari hamda ularni ushbu savollarga to'g'ri javob topishga yo'naltira bilishlari lozim. Adabiyot darslarida badiiy so'z qudratini bevosita his etmagan, uning ilohiy ta'siriga berilmagan o'quvchida tuyg'u uyg'unmaydi"².

¹ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. // Barkamol avlod orzusi. – T.: "Sharq", 1998. – B.137.

² Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning yetakchi tamoyillari // Til va adabiyot ta'limi. 1996 №3. – B.42-43.

Ushbu jarayonda o'qituvchi zimmasiga katta mas'uliyat yuklanadi. Bu mas'uliyatni tushunib yetgan muallim badiiy matn sirlarini mukammal egallash uchun tinmay izlanishi kerak. Agarda matn jozibasi to'la yoritilsa, u o'quvchida hissiy faollikni uyg'otadi. Bu esa bolada ijodiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantira boshlaydi.

Muallim o'z niyatlarini amalga oshirmoqchi bo'lsa, bolalarni badiiy asar o'qishga jalb qila bilish yo'llarini izlashi zarur. Agar o'quvchida badiiy asar o'qishga havas uyg'onsa, asarni o'qimasdan turib, u haqda boshqalar yozgan hukm-xulosalarni takrorlamasdan, mustaqil ravishda ijodiy fikrlar aytishga harakat qiladi. Badiiy asarlarni ko'p o'qigan o'quvchi esa ma'naviy barkamol inson bo'lib yetishadi. O'z navbatida tildagi orfografik, orfoepik qonun-qoidalarini mukammal egallab boradi. Biz mazkur risolamizda adabiyot o'qitish jarayonida bolalarda obrazli fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha ayrim tajribalarimizni yoritmoqchimiz. Buning uchun umumta'lim maktablarining V va VI sinflarida o'qitiladigan "Adabiyot" darslarini asos sifatida tanladik. Bu darsliklarda xalq ijodiyotiga aloqador bo'lgan maqollar, afsonalar, ertaklarning matnlari berilgan. Shuningdek, yozma adabiyotimizning durdona asarlariga oid badiiy matnlar ham o'rin olgan. O'sha materiallarni o'quvchilarga zamon talablari darajasida o'rgatish har bir muallimning kasbiy burchidir.

Beshinchi, oltinchi sinf o'quvchilari hali-yosh bo'lganliklari sababli ularning qalbi beg'ubor bo'lib, folklor asarlariga juda ishtiyoqmand bo'lishadi. Shu sababli ularni maqollar va ertaklarning sirli olamiga yetaklash zarur. Bu borada eng ilg'or pedagogik tajribalarga asoslanmoq kerak bo'ladi.

Hozirgi davrda hayotimizda kompyuter texnologiyasi va turli texnik vositalar, internet tarmoqlari keng quloch yoydi. Har bir o'qituvchi ushbu vositalardan atroflicha foydalanish yo'llarini izlamog'i shart. Agarda o'qituvchi keng dunyoqarashga ega bo'lmasa, zamonaviy talablardan orqada qolsa, adabiyot fanini butun jozibasi bilan o'quvchi ongiga yetkazish masalasi muammoligicha qolaveradi.

1-QISM

XALQ OG'ZAKI IJODIYOTI ASARLARINI O'RGATISH USULLARI

Darslikda keltirilgan maqollarni o'rgatish usullari

Beshinchi sinf darsligida maqol janriga keng o'rin ajratilgan. Chunki yosh avlodni ajdodlarimizdan meros bo'lib kelayotgan odob va axloq ruhida tarbiyalashda mazkur janrning roli beqiyosdir.

Maqol janri inson tafakkurining oliy ne'mati bo'lib, xalqimizning hayotiy tajribalarini o'zida mujassamlashtirgan. Shu sababli maqollarni o'rganish, ularning g'oyasiga amal qilish yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalashda katta ahamiyat kasb.

Maktab tizimida maqol janrining ishlatilishi ommaviy xarakterga egadir. Uni maktab hovlisida, sinfxonalarida tez-tez uchratish mumkin. Ularga ko'zi tushgan har bir o'quvchi maqol mazmunidan tarbiya oladi, odob-axloq o'rganadi.

Maqol turli xalqlarda jonli so'zlashuvda, suhbat vaqtlarida o'z joyiga qarab aytiladigan fikrni quvvatlash, tasdiqlash hamda istalgan fikrning ma'nosini qisqa va puxta qilib anglatish maqsadida qo'llaniladi. Maqolda ijtimoiy hayotdagi har xil voqealarning xulosasi ko'p yillarning tajribasi natijasida yuzaga kelgandir. U xalqning oliyjanob fikrlarining umumlashgan va tugallangan holda ixcham, bir yoki ikki jumla orqali berilgan badiiy ifodasidir. Masalan:

Yer haydasang, kuz hayda,
Kuz haydamasang, yuz hayda!

Yoki:

Ishi yo'qning oshi yo'q kabi.

Maqolda xalqning orzu-umidlari, insonparvarlik, kishining ruhiy kechinmalari, izzitirob va quvonchlari, sinfiy qarama-qarshiliklar va har xil voqealar aks etadi. Demak, maqolda predmet emas, balki mazmun

ustuvordir. Shu bilan birga, qator xalqlarning topishmoqlarini tekshirgan bir necha tadqiqotchilarning asarlarida, maqol topishmoqqa yaqin-topishmoq maqol o'rnida, maqol ayni zamonda topishmoq o'rnida kelishi mumkin degan fikr aytiladi, bu fikrni tasdiqlovchi misollar, namunalar keltiriladi. Masalan: ruslarda shunday bir maqol bor:

Svetit da ne greet. (oy)

Ko'p xalqlarda, shu jumladan, o'zbeklarda ham yuqoridagi kabi maqollar mavjud:

"Hammaga to'n tikaman, o'zim yalang'och" (igna)

"Kichkina qozonning e'chi totli" (yong'oq)

"Suvda botmaydi.

O'tda yonmaydi" (Muz)

Maqol va topishmoq xalq tajribasining va ko'p asrli kuzatishlarining yakuni sifatida yuzaga kelgan. Ularning yuzaga kelishidagi asosiy omillari, ularning vazifalari bir-biridan farq qiladi. Ammo topishmoqlarning anchasi maqol, maqollarning ko'pchiligi topishmoq degan fikrlar bor, ki, bu darajada umumlashtirishga yetarli darajada asos yo'q. Shuning uchun xalqda shunday maqol yoki topishmoq, qancha miqdorni tashkil qilishi e'tibori bilan ham tekshirish olib borish zarur.

Holbuki, maqol bilan topishmoqni bir-biriga singdirib yuborish haqiqatga unchalik to'g'ri kelmaydi. O'zbek xalq topishmoqlarida maqolning topishmoq, topishmoqning maqol o'rnida kelishi juda kam uchraydigan hodisadir. Yuqorida keltirilgan misollarning umumiy soni maqol va topishmoqlarning umumiy soniga nisbatan shunchalik ozki, ularni ayrim hodisalar deyishga to'g'ri keladi. Demak, ko'pchilik topishmoqlar ayni zamonda maqol va masal bo'lmasdan, balki ularning ayrimlarigina shunday xususiyatga egadir. Shu sababli o'qituvchi doimo folklor janriga, xususan, maqollarga e'tibor berib, ularni mavzu guruhlariga ajratib, ko'rgazmali qurollar tayyorlab qo'yishi, lozim bo'lganda texnik vositalardan video-magnitofon, hech bo'lmasa ovoz magnitofonlaridan foydalanishi lozim. Darslikda berilgan ertak namunalari ham mazmun jihatdan falsafiy-didaktik xarakterga ega bo'lib, ularning negizida maqollar yotadi. O'qituvchi bu ertaklarni tahlil etganda hamisha qissadan hissa chiqarish tamoyili asosida ish tutish kerak. Bu esa o'z-o'zidan maqollarga murojaat etishga to'g'ri keladi. Har bir ertak oxirida bitta maqol unga yakun yasaydi. O'sha maqollarga muqobil keladigan maqollarni izlab topish, bu jarayonga bolalarni jalb etish muallimning asosiy vazifasidir.

Maqol bilan yonma-yon "matal" atamasi ham ko'p ishlatiladi. Folklorshunoslik ilmda maqol va matal atamalari ikkita janrni ifodalasada, ular amaliy qo'llanganda, bir-biridan deyarli farqlanmaydi. Chunki, ular aksariyat hollarda og'zaki nutqda istifoda etilgani uchun nutq sohibi bu janrlarni unchalik farqlab o'tirmaydi. Shu sababli mazkur holat maktab va oliy o'quv yurtlarida ma'lumot berilganda muayyan qiyinchiliklarni tug'diradi.

"Maqol" atamasi arabcha "qavlun" – "aytmoq" so'zidan olingan. Matal esa, arabcha "masal" – "namuna" so'zining fonetik o'zgarishi natijasida yuzaga kelgan atamadir. Har ikkala atamani rus folklorshunosligidagi o'xshash janrlarga solishtirsak, maqol poslovitsa, matal – pogovorka ma'nosiga muqobil keladi.

O'zbek folklorshunosligi bo'yicha darslikda maqol haqida: "Maqol hamma vaqt aniq, tugal fikr anglatadi. Bu fikr qat'iy, lo'nda xulosa sifatida ifodalanadi. Uning asosida ibratomuz fikr yotadi. Maqollar o'z va ko'chma ma'nolarida qo'llana olish imkoniyatiga egadir" tarzida ta'rif beriladi.

Endi matallarga kelsak, ular haqida ko'pgina manbalarda bir-biriga yaqin fikrlar uchrasada, ayrim manbalarda ushbu fikrlarga zid xulosalar ham keltiriladi.

Talantli olim G'. Salomovning yozishicha, "Matal aytilmoqchi bo'lgan fikrni biror vosita orqali ifodalovchi ko'chma ma'noli, sodda jumla bo'lib, unda xulosa-bo'lmaydi. Balki uning o'zi biron xulosa chiqarish uchun xizmat qiladi". Boshqa turkiy xalqlar, jumladan, boshqa xalq folklorshunosligida ham matalga ushbu fikrga yaqin ta'rif beriladi: "Matallarga xos xususiyat yumor va mazax qilishdir. Umuman, matallar idiomalarga o'xshab ketadi. Ular og'zaki nutqqa, frazeologiyaga ko'proq yaqin. Matallarning asosiy vazifasi nutqqa sayqal berish bo'lib, ular fikrga ravshanlik bag'ishlashda foydalaniladi. Nutqdagi hissiyotni, ifodaviylikni kuchaytiradi". Biroq "O'zbek tilining paremiologik lug'ati"da matalga ushbu fikrga mutlaqo zid bo'lgan ta'rif beriladi: "Matallar o'z ma'nosida – to'g'ri ma'noda qo'llanadigan, qisqa, ixcham xalq iboralaridir". Ushbu ta'rifning isboti sifatida o'sha o'rinda quyidagi misollar ham qayd qilingan:

Yaxshidan ot qoladi,
Yomondan dod qoladi.

Kattaga hurmatda,
Kichikka izzatda bo'l.

Folklorshunoslikka doir manbalarda maqol va matalni farqlash borasida ozmi-ko'pmi fikrlar bor, albatta. Folklorshunos B.Sarimsoqovning ta'kidlashicha, "Matal nutqda ko'rsatish vositasi bo'lsa, maqol dalillash, isbotlash vositasi sifatida qo'llaniladi".

O'zbek xalq og'zaki ijodi bo'yicha darslikda esa: "Maqollar o'z va ko'chma ma'nolarda qo'llana olish imkoniga ega bo'lsa, matallar faqat ko'chma ma'noda qo'llaniladi", deya ko'rsatib o'tilgan.

O'zbek folklorida o'z ma'nosida ishlatiladigan maqollar juda ko'p:

Bugungi ishni ertaga qo'yma.

Oz so'zla, ko'p tingla.

Ishlamagan – tishlamas.

Shu bilan birga, o'z ma'nosiga va ayni paytda ko'chma ma'noga ega bo'lgan maqollar ham anchani tashkil etadi:

Oldingdan oqqan suvning qadri yo'q.

Nima eksang, shuni o'rasan.

Quruq gap quloqqa yoqmas.

Mazkur maqollarning barchasi o'z mustaqil ma'nolariga ega: haqiqatan ham oldingdan oqib turgan suvning qadri sezilmaydi; nima ekilsa, shu ekinni o'rib-yig'ib olish hammaga ayon; quruq gap quloqqa yoqmasligi ham to'g'ri. Endi ushbu maqollarning majoziy ma'nolariga razm solinsa, birinchi maqolda gap faqat suv haqda ketayotgani yo'q. Maqolga majoziy ma'no jihatidan qaraganda suv ramziy obrazga aylanadi, ya'ni ushbu maqol nutqda ishlatilgan o'rniga qarab turlicha ma'nolarga ko'chadi: bog'ingda pishib turgan mevaning qadri yo'q; boshingga soyabon bo'lib turgan ota-onaning qadri yo'q va hokazo.

Ikkinchi maqolning majoziy ma'nosi ham nihoyatda keng: Yomonlikka yomonlik qaytadi; har bir harakatning o'ziga yarasha natijasi bo'ladi va boshqalar. Uchinchi maqoldagi majoziylikka razm solsak, "quruq gap" birikmasi "gap" doirasidan chiqadi. Ya'ni biror ishni bitkazmoqchi bo'lsang, albatta, biror narsadan kechishing shart, degan umumiy hukm kelib chiqadi.

Endi matallar masalasiga kelsak, ularni ikki ma'noga ajratib bo'lmaydi. Matallar negizida faqat ko'chma ma'no yotadi:

Sichqon sig'mas iniga,
G'alvir bog'lar dumiga.

Yemas og'iz yeyar og'izni bog'labdi.

Eshak eshakdan qolsa qulog'ini kesadi.

Eru xotin – qo'sh ho'kiz.

Ko'r – ko'rni qorong'ida topadi.

Boyagi-boyagi – boyxo'janing tayog'i.

Aravani ot emas, arpa tortadi.

Ushbu iboralarda ko'rinadiki, ularning hayotiylik bilan bog'liq o'z ma'nolari ko'zga tashlanmaydi. Shu sababli matallar nutq jarayonida ifoda ta'sirchanligini oshirishda asosiy rol o'ynab, muayyan hukm-xulosaga ega bo'la olmaydi.

Demak, maqollar bilan matallarni farqlashda quyidagilarga e'tibor berish zarur:

1. Maqol xalqning dono tajribasi asosida yaratilib, uning negizida har bir aytilmoqchi bo'lgan fikrga nisbatan ibratomuz fikr-xulosa yotadi.

2. Maqollar orasida faqat o'z ma'nosida ishlatiladigan hayotiy zarur fikrlarni didaktik xarakterda, xulosa-hukm tarzida ifodalash xususiyati mavjud.

3. Maqollarning aksariyat qismi o'zining asl ma'nosida yoxud majoziylik bilan bog'liq ko'chma ma'noda ham ishlatiladi.

4. Matallar esa, ko'proq nutq jarayonidagi ifodaviylikni kuchaytirishda ishlatilib, ularda didaktik ruh, qat'iy hukm-xulosa bo'lmaydi.

5. Matallarning barchasi faqat ko'chma ma'noda ishlatilgani uchun, ularda tilga olingan fikrlar real hayot bilan bog'liq o'z ma'nolariga ega emas.

Matallarda ko'proq kinoya, qochiriq, kulgu mavjud bo'lib, nutq jarayonida xulosa tarzida berilmaydi. Balki, ulardagi ishora, shamaga qarab tinglovchining o'zi xulosa chiqarib oladi.

V sinf adabiyot darsligiga 24 ta maqol kiritilgan. Maqollarning mohiyati haqida, ularning yaratilish va tarqalish tamoyillari xususida qisqacha ma'lumot berilgan.

Mumtoz adabiyotimizda mashhur bo'lgan Gulxaniyning "Zarbulmasal" asarining maqollar asosiga qurilganligi ta'kidlab o'tilgan. Darvoqe, "Zarbulmasal" atamasi haqida ham o'quvchilarga qisqacha ma'lumot berib o'tilsa yomon bo'lmaydi. Chunki ko'pgina o'qituvchilar bu asarning masalimi, maqolmi ekanini aniq tasavvur qila olmaydilar. Bu atamaning **zarb** qismi urmoq ma'nosini bildiradi. **Masal** so'zi esa forsiy xalqlarda **maqol** ma'nosida qo'llaniladi. Ma'lumki, **urmoq** so'zi og'zaki nutqda guring urmoq, piching urmoq kabi birikmalarda **aytmoq**, **so'zlamoq** ma'nolarini ham anglatadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, **Zarbulmasal** "maqol aytishmoq" ma'nosini anglatadi. Muallim ushbu ma'lumotni qisqacha aytib o'tsa, o'quvchilar uni bir umr eslab qolishadi.

Darslikka kirgan maqollarni dastlab mavzu bo'yicha tasnif qilgan ma'qul. Uni quyidagi mavzularga ajratish mumkin:

Vatanparvarlik – 5 ta,
do'stlik – 4 ta,
birdamlik – 6 ta,
xalqparvarlik – 5ta,
mehnatsevarlik – 2 ta,
maishiy mavzu – 2ta, Jami: 24 ta.

Maishiy mavzuga oid maqollarga quyidagilarni kiritish muki:

Gul o'ssa yerning ko'rki,
Qiz o'ssa – elning.

Ikki o'n besh – bir o'ttiz.

Bu maqollarning maishiyliigi shundaki, ular turmush, yashash tarzi bilan bog'liq. Birinchi maqolda **gul** va **qiz** obrazlari orqali muayyan g'oya ilgari surilgan. Gul yerga ko'rk, tarovat bag'ishlasa, qiz elga, hayotga, oilaga ko'rk va go'zallik bag'ishlaydi, gulni ham qizni ham avaylab-asrash zarur.

"Ikki o'n besh – bir o'ttiz" maqoli ham turmush, yashash tarzi bilan bog'liq bo'lib, uning Xorazmda: "Palov yedim ne, yedim palov ne" degan shakli mavjud. Bu maqol bir gapni ikki xil talqin qiluvchi ezma odamlarga nisbatan qo'llaniladi.

Darslikda 9 ta savol va bitta topshiriq berilgan bo'lib, ularga javob topishning o'zi darsning samarali o'tishini ta'minlaydi. Savollar ancha murakkab, ularga javob topish uchun muallim ancha kitob axtarishi lozim bo'ladi. O'quvchilarning esa bu savollarga mustaqil javob topishlari ancha qiyin.

Birinchi savolda maqol va hikmatli so'zlar o'rtasidagi farqni ochib berish so'ralgan. Odatda, hikmatli so'zlar buyuk kishilar – olimlar, yozuvchilar, faylasuflar, siyosatchilar tomonidan yaratiladi. Masalan, Beruniyning "Hikmatlar" kitobida shunday hikmatli so'z berilgan:

Ko'z bilan ko'rgan eshitgandan afzaldir. Bilim-qaytarish va takrorlash mevasidir. Alisher Navoiy ijodida ham hikmatli so'zlar ko'plab uchraydi:

Odob va tavoze mehr-muhabbatning zeb-ziynatidir.

Tilga ixtiyorsiz – elga e'tiborsiz.

Hikmatli so'zlar bilan maqollarning o'xshashlik tomoni shundaki, ularning har ikkalasida ham oliyjanob fikrlar mujassamlashgan.

Maqol o'zining ixchamligi, poetik ruhining yuksakligi, ommaviyligi bilan ulardan farqlanadi.

Hikmatli so'zlar ham davr o'tishi bilan keng ommalashib, maqol janriga aylanishi mumkin. A.Navoiyning yuqorida keltirilgan til haqidagi hikmatining maqoldan farqi yo'q.

Ikkinchi savolda maqolning asosiy xususiyatlarini aytib berish so'ralgan. Bu haqda yuqorida ancha fikrlar bildirildi.

Maqollar mo'jaz, o'tkir, aksariyat hollarda, tashbehga asoslangan va majoziy xususiyat kasb etgan ommabop iboralardir.

Uchinchi savolda "Bulbul chamanni sevar, odam Vatanni" maqolidagi bulbul va odam obrazlarini sharhlab bering, deyilgan.

Odatda, maqollarda ikki obraz, ikki timsol ishtirok etadi. Mazkur maqolda bulbul va odam obrazlari tanlangan.

Ma'lumki, bulbulni chamansiz, gulsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ana shu xususiyat maqolda odam, inson obraziga qiyos qilingan. Demak, odamni ham Vatanisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shunday ekan, bulbul

chamanni qanchalik sevsa, inson ham Vatanni o'shanday e'zozlashi kerak. To'rtinchi savolda "Qayrag'och qalin bo'lsa, yomg'ir o'tmas" maqolini sharhlash topshirilgan.

Ushbu maqolda qayrag'och va yomg'ir timsoli orqali majoziy ma'noga ishora qilingan. Gap tabiat va tabiat hodisasi haqida ketayotgan bo'lsa-da, maqol zahirida inson hayoti yotadi. Bu yerda kishilar o'rtasidagi birdamlik, ahillik, birodarlik xususiyatlari ulug'lanadi. Qayrag'ochning qalin butoqlari orasidan yomg'ir o'ta olmaganidek, o'zaro jipslashgan, ahil va hamjihat kishilar orasini ham dushman buza olmaydi, degan g'oya maqolning asosiy mohiyatini tashkil etadi.

Beshinchi savolda nima uchun do'st bodom po'stiga qiyos qilinganligining sababi so'ralgan.

Yuqorida qayd qilganimizdek, maqollarning aksariyatida tashbeh san'atiga murojaat qilinadi.

Darvoqe, bodom po'st bilan mukammallik kasb etadi. Po'st uni tashqi ta'sirlardan muhofaza qiladi. Bodom mevasiga ko'rk va chiroy bag'ishlaydi. Yerga tushsa, ezilishdan, aynishdan saqlaydi. Do'st ham insonga o'ziga xos tayanch, suyanich, uni har qanday balo-qazolardan himoya qilishga bel bog'lagan qalqondir. Shu sababli bodomni po'stsiz, insonni do'stsiz tasavvur qilish qiyin.

Oltinchi savolda "**Ko'kka** boqma, **ko'pga** boq" maqolining badiiyatini yoritish topshirilgan. Ushbu maqol birdamlik va ahillikka chorlovchi maqoldir. Maqol tuzilishi jihatidan alliteratsiya – tovush uyg'unligiga asoslangan. Natijada qofiyaviy jipslik va poetik ohangdorlik ro'yobga chiqqan. Bu xususiyat ko'pchilik maqollarga xos xususiyatdir.

Yettinchi savolga asos bo'lgan "Xalq so'zi – Haq so'zi" maqoli ham ushbu tamoyil asosida tuzilgan. Bu maqoldagi **Haq** va **xalq** so'zlari maqolning ravon va ohangdor chiqishida asosiy rol ni o'ynaydi. Sakkinchi va to'qqizinchi savollarda maqollarning qaysi biri qadimiy va qaysi biri zamonaviy ekanini aniqlash topshirilgan.

Avvalo maqollarni, umuman folklorning kichik janrlarini qaysi davrga mansub ekanini aniqlash murakkab masaladir. Chunki har qanday maqol, topishmoq yoki qo'shiq zamonlar o'tishi bilan muayyan o'zgarishga uchraydi. Shunday bo'lsa-da, bu janrlarning qadimiy yoki zamonaviyligini shartli ravishda aniqlash imkoniyati mavjud. Ma'lumki, maqollar eng qadimgi janrlardan biridir. Ularning mehnat, ov, ov

qurollari, turli mavsumlar bilan aloqador turlari folklorshunoslikda qadimiylikka daxldor deb belgilanadi.

Shu tamoyil asosida masalaga yondashsak, darslikda keltirilgan namunalar orasida mehnat bilan bog'liq quyidagi maqollarni nisbatan qadimiy deb belgilash mumkin:

Mehnat qilib topganing,

Qandu asal totganing.

Daryo suvini bahor toshirar,

Odam qadrini mehnat oshirar.

Darslikda keltirilgan namunalar orasida keltirilgan: Do'st do'stning **oynasi**, maqolidagi "oyna" so'zi nuqtayi nazaridan qaraganda, maqol jamiyat taraqqiyotining ancha keyingi davrlarida yaratilgan. Chunki ibtidoiy davr kishilarida oyna-ko'zgu haqida tasavvur bo'lgan emas. "Piyozning po'sti ko'p, Yaxshining do'sti ko'p", maqoli ham dehqonchilik madaniyatining rivojlangan davrida yaratilganligi sababli keyingi asrlarning mahsulidir. "Ona yurtning – oltin beshiging", maqoli haqida ham shu fikrni aytish mumkin. Maqollarni o'rgatish jarayonida haqiqatan ham ularning badiiyati masalasiga alohida e'tibor berish zarur. Ushbu janrga xos bo'lgan poetik xususiyatlardan biri yuqorida ta'kidlaganimiz kabi ularning tovush uyg'unligi asosida qo'fiyalanishidir:

Er qadrini er bilar,

Er bilmasa el bilar.

Ikki misra tarkibida **er** so'zining uch marta takrorlanishi va ularga ohangdosh **el** so'zining ishlatilishi maqolning polifonik (ohangdor) ifodaga ega bo'lishini ta'minlagan.

Maqollardagi badiiyat, mahorat masalalari qanchalik yoritilsa, o'quvchilarning obrazli fikrlashi tobora oshib boradi. Maqollarga xos yana bir xususiyat ularning majoziy xususiyatga egaligidir.

Masalan:

Bo'ron kuni qor bossa,

Yolg'iz otni o'ldirar.

Xalq puflasa, bo'ron bo'lar.

Majoziylik soʻz maʼnosining obrazlilik asosida koʻchim hosil qilishidir. Birinchi maqolda boʻron, qor, ot obrazlari olingan. Toʻgʻri maʼnoda olinsa, haqiqatan ham boʻron kuni qor bossa, yolgʻiz otga qiyin boʻladi. Uning taqdiri oʻlim bilan yakun topishi ham mumkin. Agar maqoldagi majoziy maʼnoga eʼtibor qilsak, gap inson hayotiga kelib bogʻlanadi. Biror baxtsizlik, qiyinchilik tugʻilgan kuni inson yolgʻiz boʻlsa, boshiga tushgan kulfatni hazm qila olmaydi. Agarda uning tevaragida yolgʻiz doʻsti, qarindoshlari jamuljam boʻlsa, har qanday qiyinchilik barham topishi mumkin. Bunday maqollarni sharhlaganda albatta uning muqobil variantini keltirish zarur. Mazkur maqolga “Doʻstsiz boshim-tuzsiz oshim”, “Yolgʻiz otning changi chiqmas” kabi maqollar muqobil boʻla oladi. Aksariyat hollarda, muqobil variantlarni oʻquvchilarning oʻziga topdirgan maʼqul. Ikkinchi maqolda ushbu fikr yanada rivojlantirilgan. Bu maqolda **pufflash** haqida gap ketayotgani yoʻq. Mazkur soʻz majoziy maʼnoga ega. Uning negizida xalq birlashsa, birgalikda qoʻzgʻalsa, uni yengib boʻlmaydi, degan maʼno mujassamlashgan. Bu maqolga darslikda berilgan: “Koʻp tupursa koʻl boʻlar” maqoli muqobil boʻla oladi. Darslikdagi oxirgi topshiriq vatanparvarlik, mehnatsevarlik va yaxshilik haqida yaratilgan maqollarni toʻplashga bagʻishlangan. Shu sababli, muallim bolalarni bu savob ishga jalb qilishi kerak. Yoshlar bunday ishlarga qiziquvchan boʻlishadi. Umuman ular qaysi mavzuda boʻlishidan qatʼiy nazar xalq ijodiyoti materiallarini toʻplashga oʻrgansalar, natijasi yaxshi boʻladi. Binobarin, maqollarni oʻrgatish jarayonida ularning bagʻrida yashiringan goʻzal ifodalarni yoritib berish oʻquvchilarni adabiyotning hissiy olamiga olib kiradi, ularni obrazli fikrlashga oʻrgatadi.

Ertaklarni tahlil qilish jarayonida oʻquvchilarni obrazli fikrlashga oʻrgatish usullari

Umumtaʼlim maktablarining adabiyot darsliklarida koʻplab ertak matnlari berilgan. Badiiy asarlarni, xususan, ertaklarni oʻrganishda koʻpgina oʻqituvchilar hozirgacha ushbu janrdagi gʻoyaviy-didaktik xususiyatlarni tahlil qilishni anʼanaviy tamoyil sifatida qoʻllab kelmoqdalar.

Ertaklar haqida soʻz yuritganda aksariyat hollarda xalq ogʻzaki ijodiyotidagi dualizm – ezgulik va yovuzlikning oʻzaro kurashlari, ushbu ikki qarama-qarshi qutbning toʻqnashuvi asnosida kechadigan

voqealar xususida soʻz yuritiladi, oxir-oqibatda ezgulikning yovuzlik ustidan gʻalaba qilganligi taʼkidlanib, yovuzlik timsolida harakat qiladigan obrazlar qoralanib, ezgulik ramzi sifatida harakat qiluvchi obrazlar oliyjanob qilib koʻrsatiladi. Natijada oʻquvchilarda yovuzlikka nisbatan nafrat, ezgulikka nisbatan muhabbat tuygʻulari kamol topib boradi. Odob-axloq nuqtayi nazaridan qaraganda bu usuldan ajablanmasa ham boʻladi. Dastur talablariga javob bera oladi. Ammo, mazkur usulda “Folklor asarlarining shakliiy xususiyatlari, ayniqsa, ularning tili eʼtibordan chetda qoladi. Oʻqituvchilarning ana shu eʼtiborsizligi oʻquvchilarni folklor asarlarida mujassamlashgan goʻzallikdan bebahra boʻlishlariga sabab boʻladi”.

Umumtaʼlim maktablarining beshinchi sinfi adabiyot darsliklariga koʻplab ertak matnlari kiritilgan. Beshinchi sinf oʻquvchilariga ertaklardagi obrazlar, matndagi obrazli ifodalar, poetik tilning oʻziga xos xususiyatlari bilan aloqador masalalarni oʻrgatish, yoshlarni badiiy tilning hissiy taʼsiridan ogoh qilish oson kechadigan ish emas. Avvalo bu masalalardan oʻqituvchining oʻzi yaxshi xabardor boʻlishi zarur.

Badiiy adabiyotning oʻziga xos asosiy xususiyatlaridan biri uning obraz vositasida ish koʻrishidir. Shu sababli oʻqituvchi dastlab obraz tushunchasining mohiyatini mukammal tarzda oʻzlashtirib olgan boʻlishi kerak. Adabiyotdagi bu muammoni tahlil qilish ancha qiyinchilik tugʻdiradi. Chunki “obraz”, “obrazlilik”, “badiiylik” tushunchalari turli manbalarda xilma-xil tarzda sharhlangan, ayrim hollarda, bu tushunchalar bir-biri bilan aralashtirib yuborilgan-yoki aksincha⁴.

Maktabda bolalarga ishini, eng avvalo, obraz atamasining maʼnosini va uning vazifasini tushuntirishdan boshlagan maʼqul.

“Badiiy tafakkurning bir qismi boʻlgan obraz sanʼatning barcha turlarida mavjud boʻlib, musiqada ohanglar majmui, teatrdagi aktyorlar ijro usullari, adabiyotda esa tilning obrazli ifodalari tarzida namoyon boʻladi”⁵.

Obrazning voqe boʻlishida tilning boy va rang-barang leksikasiga asoslangan badiiy nutq asosiy rol oʻynaydi.

“Badiiy nutq obrazli nutq sanaladi. Soʻz bilan obraz oʻzaro bogʻliq boʻlsa ham bir-biriga teng keladigan tushunchalar emas. Chunki soʻz

³ Toʻxliyev B. Maxsus fanlarni oʻqitish metodikasi. – T.: 2008. B. 50.

⁴ Bu haqda qarang: Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – T.: 2007. B. 4-7.

⁵ Guliga A.V. Prinsipi estetiki. – M.: Politizdat. 1987. S. 163.

til birligi, obraz esa san'at hodisasidir. Badiiy adabiyotda so'z va gap obraz, manzara yaratishning o'ziga xos libosidir”⁶.

Obraz atamasi rus tilidagi “obrazit” – “paydo qilmoq”, “tasvirlamoq” so'zi bilan aloqadordir⁷.

Obrazda asar muallifining chuqur hissiy kechinmalari mujassamlashgan bo'lib, u eshituvchi, o'quvchi va tomoshabinda ham o'sha kechinmani vujudga keltiradi. Shunday ekan, badiiy asardagi obraz tushunchasining mohiyatiga etmasdan turib, undagi badiiy ifodani bolalarga tushuntirib berish murakkab masaladir.

Shuni ham ta'kidlash joizki, adabiyot so'z vositasida obraz yarata-di. Ushbu jarayonda adabiy asardagi voqealar tafsilotini tasvirlash umumxalq tiliga asoslangan badiiy til zimmasiga tushadi. Badiiy tilning imkoniyatlari esa nihoyatda kattadir. B.Sarimsoqov badiiy til imkoniyatlarini quyidagicha sharhlaydi:

1. So'z ma'nolarining ko'chishi.
 2. O'zga tillardan so'z olib o'zlashtirish.
 3. Tildagi eski va yangi yaratilgan so'zlardan foydalanish.
 4. Sheva va lahjalarga mansub so'zlarga murojaat qilish.
 5. Tildagi yordamchi so'z va qo'shimchalardan foydalanish.
 6. Turli sohalarga oid atamalardan foydalanish.
 7. Tildagi fonetik vositalarni ishga solish.
 8. Tildagi yumuq iboralar, frazeologik iboralar, maqol, matallarni istifoda etish.
 9. So'z birikmasi yoki gapning kutilmagan shakllarini qo'llash⁸.
- Ushbu tasnifdan ma'lum bo'ladiki, asarda kechadigan voqea-hodisalarni shakl qolipiga soluvchi badiiy nutq imkoniyatlari nihoyatda keng doirani tashkil etadi.

Albatta, endigina boshlang'ich sinf partasidan chiqib beshinchi sinfga ko'chgan o'quvchilarga adabiyot nazariyasi bilan bog'liq mazkur masalalarni tahlil qilib, tushuntirib o'tirish shart emas. Chunki ularning iqtidori ushbu qonun-qoidalarini hazm qila olmaydi. Agarda o'qituvchining o'zi yuqorida ta'kidlangan nazariy masalalarni yaxshi o'zlashtirgan bo'lsa, bolalarni obraz va obrazli til elementlari bilan tanishtirish imkoniyatlari ro'yobga chiqadi. V sinf darsligida “Susambil”

⁶ Yo'ldoshev B., Qurbonov T. Badiiy asar tili va uslubi masalalari. Samarqand, 2007. B. 77.

⁷ Sarimsoqov B. Ko'rsatilgan asar, 8-bet.

⁸ Sarimsoqov B. O'sha asar, 116-120-betlar.

ertagi matni berilgan. Eng avvalo ertakning nomi har bir o'quvchini qiziqtiradi. Ular o'qituvchidan nomning ma'nosini so'rashadi. Shu sababli o'qituvchi bu nom haqida o'quvchilarga qanoatlanarli javob berishga tayyor bo'lishi kerak. Folklorshunoslik fanida epik makon, mifologik makon va real makon degan tushunchalar mavjud. Susambil, Chambil degan nomlar epik makon turiga kiradi. Bu nomlar ertak va dostonlarda ko'plab uchraydi va ular bir vaqtlari ijodkor ertakchi va baxshilar tomonidan o'ylab topilgan. Bolalarga bu uchala makon haqida to'la ma'lumot berish shart emas. Nazariy ma'lumot berishda ertak doirasidan chiqmagan ma'qul.

“Susambil” ertagi hajman katta, shu sababli uni mazmun-mohiyatiga qarab uch qismga bo'lib tahlil qilish lozim. Ertak bilan tanishgandan so'ng bu vazifani o'quvchilarning o'ziga topshirish kerak. Albatta, o'qituvchi oldindan bu masalani hal qilib kelishi lozim. Taxminan, bu uch bo'lim quyidagicha bo'ladi:

1. Hayvonlar boy xizmatida.
2. Susambil yo'lida.
3. Susambildagi hayot.

Avvalo, ertakning umumiy mazmuni bilan tanishib chiqqandan keyingina uni qismlarga ajratish imkoniyati yuzaga keladi.

Qismlarga ajratilgach, ertak tahliliga kirishish lozim. Matn tahlilini ertak muqaddimasi haqida nazariy ma'lumot berishdan boshlash kerak. Chunki “Har bir sinfda folklor materiallarini tanlashda o'quvchilarning ruhiy hamda yosh xususiyatlari nazarda tutilgan. 5-sinfdan boshlaboq faqat folklor asarlarining o'zinigina emas, balki ularga bog'liq holda ayrim nazariy ma'lumotlarni ham yetkazish ko'zda tutilgan. O'qituvchi, mana shu dastlabki tajribalardanoq folklor nazariyasining elementar ma'lumotlarini o'quvchilar ongiga singdirib borishi kerak⁹.

Ertakning muqaddimasi quyidagicha boshlanadi: “Bor ekan-u, yo'q ekan, och ekan-u, to'q ekan, bo'ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan, qarg'a qaqimchi ekan, chumchuq chaqimchi ekan, o'rdak sumaychi ekan, g'oz karnaychi ekan”. O'qituvchi ko'pgina ertaklar muqaddimasi aynan takrorlanadigan ushbu saj'li boshlanmaning an'anaviy ifoda vositasi ekanligini, bu an'ana ertak voqealariga eshituvchini tezroq jalb qilish, unga estetik ta'sir o'tkazish, qolaversa, ertakchiga ertak voqealarini boshlash uchun turtki bo'lib xizmat qilishini tushuntirishi ke-

⁹ To'xliov B. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. 49-bet.



rak. Shuningdek, ushbu an'anaviy boshlanmadagi ayrim so'zlarga izoh berish kerak bo'ladi. Masalan: **bakovul** – oshpazlar boshlig'i, **yasovul** – posbon, **qaqimchi** – tabib; **chaqimchi** – g'iybatchi kabi. Ertaklar biror hudud bilan bog'liq ertakchidan yozib olinganligi sababli uning leksikasida o'sha hudud bilan aloqador sheva so'zlari, o'z navbatida, ertak yaratilgandan beri uning tarkibida saqlanib kelayotgan tarixiy va boshqa tillarga oid leksik birliklar bo'lishi mumkin. Ushbu ertak tarkibida ham o'shanday so'zlar anchani tashkil etadi: **qarol** – yollanib ishlovchi, batrak; **gajimli**-shokilali, popukli (sochoqli); **boz** – yana; **arg'amchi** – arqon; **loaqal** – hech bo'lmaganda; **azroil** – jon oluvchi; **munkarnakir** – o'lganlarni so'roq qiluvchi; **so'fi** – azon aytuvchi; **so'yil** – tayog; **vasvasa** – vahima kabi. Ushbu so'zlar ma'nosini sharhlash birinchidan o'quvchilarning so'z boyligini oshiradi. Ikkinchidan ertak g'oyaviy mazmunini tushunib olishni osonlashtiradi.

Ertakning g'oyaviy mazmunini tushuntirish unchalik qiyinchilik tug'dirmaydi. Uning asosiy g'oyasi ozod va farovon hayot uchun kurash, do'stlik va hamjihatlikni ulug'lash, har qanday dushmani birlashib yengishdir. O'quvchilar boshlang'ich sinflardayoq ertak o'qishga ishqiboz bo'lganliklari sababli bu ertakni ham ular mustaqil holda o'qib, g'oyaviy mazmunini tushunib olishlari unchalik qiyin emas. Ammo ertakning badiiy-estetik ta'sirini bolalar ongiga yetkazish ancha mashaqqatli vazifadir.

O'qituvchi ertakni uchga bo'lib o'rganishga kirishishdan oldin yuqorida keltirilgan qiyin tushuniladigan so'zlarni lug'at sifatida doskaga yozib qo'yishi kerak. Matn o'qilib, mazmun va g'oya ma'lum bo'lgandan keyin ertak tarkibidagi turli maqollar, xalqona iboralar aniqlanib, ularning ertak badiiyatida tutgan rolini sharhlash lozim.

Ularni tubandagicha tasnif qilish mumkin:

Ifoda vositalari	Turi	Ma'nosi
Boyagi-boyagi – boy xo'janing tayog'i	Maqol	O'sha-o'sha, o'zgarishsiz
Yo'l azobi – go'r azobi	Maqol	Mashaqqat va qiyinchilik
Xo'jayinning qahri kelib, chayonday zahri kelib...	Saj' usuli	Achchiqlanmoq

O'tning bo'lig'i, suvning tinig'i...	Saj' usuli	Mo'l-ko'llik
Bular yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi.	Saj' usuli	Uzoq yo'l bosmoq
Ovini ovlab, dovini dovlab, maza qilib...	Saj' usuli	Rohat-farog'atga erishmoq
O'lganning ustiga tepgan	Frazeologik ibora	Ustiga ustak azob bermoq
Shu yerdan boshni olib ketayin	Frazeologik ibora	Bezor bo'lib, ketib qolmoq
Borganlarning bag'riga shamol tegibdi	Frazeologik ibora	Orzusiga yetmoq
Rangi o'chib, qoni qochib, iyaklari qaltirab, ko'zlari yaltirab qolibdi.	Saj' usuli (nasrdagi qofiya)	Charchamoq, madori qochmoq

Agarda o'qituvchi ushbu tamoyilda ish tutsa, ertaklarni o'rganish jarayonida o'quvchilarning til va badiiy nutq go'zalligini, til boyliklarini, uning ifoda vositalari va me'yorlarini idrok etishga qaratilgan estetik qarashlari ham yuksalib boradi. "Badiiy matnning butun jozibasi siru sehri ochilgandagina o'quvchi hayratga tushadi, loqaydlik vaziyatidan chiqadi. Loqaydlikdan forig' bo'lgan, hissiyoti uyg'ongan, ruhiy, mudroqlikdan xalos bo'lgan o'quvchilardagina ma'naviy sifatlar o'z-o'zidan shakllana boradi"¹⁰.

Adabiyot o'qitishdan asl maqsad ham yoshlarni yuksak ma'naviyatli, madaniyatli shaxs sifatida tarbiyalab yetishtirishdir. O'qituvchilarga yuqoridagi obrazli iboralarning asar matnini o'qishli va bo'yoqdor chiqishidagi ahamiyati masalasiga alohida to'xtalish zarur. Agarda badiiy nutqda o'quvchida ehtiros uyg'otuvchi o'shanday obrazli ifodalar bo'lmasa, matnning badiiylkdan mahrum bo'lishini bolalar anglab yetishi lozim. Albatta asarda ishtirok etuvchi obrazlar haqida alohida chuqur ma'lumot berish kerak bo'ladi.

¹⁰ Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning yetakchi tamoyillari. 42-bet.

“Susambil” ertagida asosiy obrazlar eshak va ho‘kizdir. Ular mehnatkash bo‘lishlariga qaramay qadr topmaydilar. Shu sababli to‘q va farovon hayot izlab Susambilga yo‘l olishadi. Yo‘lda xo‘roz, kalamushlar, arilar ularga sherik bo‘lishadi. Oxir-oqibat ular baxtga erishadilar va hamjihat bo‘lib hayot kechirishadi, ahillik bilan dushmanlar ustidan g‘alaba qozonadilar.

O‘quvchilarga har bir obraz tavsifini to‘la yetkazish lozim. Ular-ga shunday ta‘sir qilish kerakki, obrazlar qiyinchilikka duch kelishsa qayg‘ursinlar, baxt-saodatga erishsa, shodlansinlar. Ertaklardagi aso-siy g‘oyalarni bolalar ongiga yetkazishning ta‘lim-tarbiya jarayonida ko‘plab imkoniyatlari mavjud.

Birinchi navbatda, ular yoshlardagi ijodiy iqtidorning o‘rishiga imkon yaratadi. Qolaversa, ularda xalq madaniyati va qadriyatlarini e‘zozlash hissini uyg‘otadi. Ertaklarning mazmunini hikoya qildirish jarayonida bolalarning bog‘lanishli nutqi rivojlanadi. Ularni ertaklarni to‘plashga o‘rgatish esa bolalarning ijodiy qobiliyatini o‘rishiga olib keladi. Bu omillarning barchasi o‘qituvchining fanni qay darajada egallaganligi bilan aloqadordir.

V sinfda “Uch og‘a-ini botirlar” ertagini o‘rganish

“Uch og‘a-ini botirlar” ertagida xalq badiiy dahosi, tafakkur qu-d-rati yaqqol namoyon bo‘lgan. Shu sababli bu ertak doimiy ravishda maktab darsliklaridan joy olib kelmoqda. Ertakni yosh bolalar hali V sinfga yetmasdan burun o‘qib ulgurishadi, uning ibratli mazmuni bilan tanish bo‘lishadi. Ertakni tahlil qilganda undagi eng muhim nuqtalar-ga e‘tibor qaratish kerak. Uning matnini o‘qitib, qayta hikoya qildirish shart emas. Ertak nihoyasida darslik mualliflari 7 ta savol qo‘yishgan. O‘qituvchi ana shu savollarga ijodiy yondashib, unga yana qo‘shimcha savollar tirkab, darsni savol-javob asosida tashkil qilsa, ertakdagi aso-siy g‘oya o‘quvchilar ongiga yetib boradi. Shuni unutmaslik kerakki, qo‘shimcha savollar ertakdagi til, ramz va badiiy ifoda xususiyatlarini ochishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Chunki darslikda keltirilgan savollar asosan asarning g‘oyaviy mazmuni bilan aloqadordir. Yaxshisi, dastlab kitobda berilgan savollar vositasida muloqot qilib, keyin asar badiiyati bilan aloqador qo‘shimcha savollarni davom ettirish yaxshi natija beradi.

No	Savollar	Javoblar
1	Ushbu ertakning “Uch og‘a-ini botir-lar” deb atalishiga sabab nima?	Ertakda uch obraz – uch og‘a-ini qatnashadi. Ularning ertakdagi faoliyatlari mazmunning asosini tashkil etadi. Bu uchta obrazni bir-biridan ajratgan holda tasavvur qilib bo‘lmaydi. O‘z navbatida, uchalasi ham ijobiy xarakterga ega. Shu sababli, ertakni boshqacha nomlash mumkin emas.
2	Ota o‘g‘illar tarbi-yasida uch narsaga e‘tibor berganini aytadi. Ular nimalar-dan iborat?	Ota, birinchidan, o‘g‘illarini sog‘lom vujudli qilib o‘stiradi. Bu kuch-quvvat degani. Ikkinchidan, yarog‘ bilan tanishtiradi – yigitlar qurol-yarog‘ ishlatishdan boxabar bo‘lishadi. Uchinchi-dan, qo‘rqitmay o‘stiradi. Ular botir, jasur bo‘lib yetishadi.
3	Ota o‘g‘illariga ayt-gan uch nasihatida qanday hikmat bor? “To‘g‘ri bo‘ling”, “Maqtanch oq bo‘lmang”, “Dan-gasalik qilmang” degan nasihatlar ma‘nosini o‘zi-gizcha chaqishga harakat qiling.	Bu uchta nasihatda katta hayotiy hikmat mavjud. Ota bu uchta nasihatga javobni ham o‘sha yerda aytib o‘tgan. Ammo ushbu qisqa javoblarning negizida katta haqiqatlar yotadi. Negaki, to‘g‘ri bo‘lgan kishi hech nima va hech kimdan qo‘rqmaydi. Buni xalq maqollari ham tasdiqlaydi: • Rostga zavol yo‘q. • Egri ozadi, to‘g‘ri o‘zadi. • Maqtanchoqlik esa boshga balo olib keladi. Buni maqollar bilan isbotlash mumkin: • Maqtanma g‘oz, hunaring oz. • Kamtarga kamol manmanga zavol. • Dangasalik esa kishini xor-zorlik sari yetaklaydi: Baxt yalqovga begona. • Erinchoqlik boshga balo keltiradi. • Ota bolalariga nasihat berganda xalqning asrlar bo‘yi to‘plagan tajribasiga tayangan.

4	Safarda uch kechada uch og'a-ini qanday voqea-hodisalarni boshidan kechirdi? Har biri to'g'risida alohida hikoya qiling, ularga sarlavhalar toping.	Ertakda tasvirlangan uch kechadagi uch voqeaning har biri og'a-inilar obrazining ijobiy qiyofasini ochib berishda o'ziga xos bir kichik hikoya sifatida namoyon bo'ladi. Birinchi kechadagi voqega "To'ng'ich botir va sher" deb sarlavha qo'yish mumkin. Chunki to'ng'ich botir birinchi kechada poyloqchilik qilib to'qayda sher bilan olishadi va uni o'ldirib, uning terisidan bir tasma olib, beliga bog'laydi. Chunki lozim paytda bu voqeani isbot qilishda tasma dalil sifatida xizmat qiladi. Ikkinchi kecha voqealariga "O'rtanchi botir va ajdar" deb sarlavha qo'yish mumkin. Chunki u o'z poyloqchiligi paytida g'orda makon tutgan ajdar bilan olishib, uni yengadi va terisidan bir tasma olib beliga qistiradi. Uchinchi kechadagi voqealarni "Kenja botir va qaroqchilar" nomi bilan atash mumkin.
5	Kenja o'g'il sarguzashtlariga alohida e'tibor bering. Kenja botirning tadbirkorlik bilan qaroqchi-o'g'rilar boshini qilichdan o'tkazib, arkka kirishi, uyqudagi podshoh qizlariga duch kelishi, avval akalari nasibasi-baxtini o'ylab, oxirida ko'rgan qizni o'ziga ravo ko'rishi nimani anglatadi?	Kenja o'g'ilning sarguzashtlari ertakning asosini tashkil etadi. Chunki ertak o'sha sarguzashtdan keyin o'z yechimiga ega bo'ladi. U poyloqchilik qilgan paytda chiroq o'chadi. Uni yondirish uchun olov izlab borib, kenja botir qaroqchilar to'dasiga duch keladi. Ularning razil kishilar ekanini anglab, hiyla ishlatadi va qaroqchilarning barchasini podshoh saroyi devori tagida qilichdan o'tkazadi. Keyin podshoh qizlariga duch kelib, katta qizni katta akasi, o'rtanchi qizni o'rtanchi akasi uchun tanlaydi. Uning o'zini o'ylamay dastlab akalari baxtini o'ylashi oliyjanoblik va yuksak ma'naviyatlilik belgisidir. Eng oxirida esa u kenja qizni o'zi uchun tanlaydi.

6	Uch og'a-inining ziyofat paytida dasturxonga qo'yilgan go'sht, shinni, non to'g'risidagi gaplari — ta'birlariga e'tibor bering. Bu ta'birlarning siri ochilgach, aka-ukalar hayotida qanday o'zgarishlar yuz beradi?	Uch og'a-inining ziyofat paytidagi o'zaro suhbatlari ularning nihoyatda sinchkov, tajribali va bashoratchi, aql-zakovat egalari ekanligidan darak beradi. Og'a-inilarning bu ta'birlari to'g'ri chiqqandan so'ng podsho ularning tasodifiy bir yo'lovchilar emas, balki yuksak aql-idrokka ega bo'lgan dono yigitlar ekanligiga tan beradi va ishonch bilan ularni kuyov qilishga qaror qiladi.
7	Suyukli kuyov — Kenja botir nima sababdan zindonga solindi? Ertak oxirida "Kenja botir podshoga qarab bir hikoya aytdi" deyiladi, sizningcha, bu qanday hikoya? Kenja botirning taqdiri nima bo'ladi?	Kenja botirning zindonga tushishi, podshohning chuqur o'ylamasdan ig'voga ishonib hukm chiqarishi natijasida yuz beradi. Podshoh uxlab yotganda unga ilonning hamla qilishini ko'rib qolgan Kenja botir ilonni o'ldirib, qilichini qiniga solayotganida podshoh uyg'onib qoladi va shubhaga tushadi. Vazirning ig'vogarliligi esa uning nohaq hukm chiqarishiga sababchi bo'ladi. Bu hukmni podshohning qizi otasiga yolvorib bekor qildiradi. Kenja botir o'zining aybsiz aybdor ekanini isbotlash uchun podshohga "To'ti hikoyasi"ni so'zlab beradi. Bu hikoya darslikda berilmagan. Uni o'qituvchining o'zi topishi yoki o'quvchilarga manbani aytib topdirishi lozim.

To'ti hikoyasi

Bitta shohning bir to'tisi bor ekan. Shoh uni yaxshi ko'rib, doimo suhbatlashib ovunar edi. Bir kuni to'ti shohdan o'z eli Hindistonga borib kelish uchun 14 kun muhlat so'raydi. Shoh ko'nmaydi. Oxir-oqibat to'ti yolvora-yolvora ruxsat olib, ota-onasini ko'rib kelish uchun o'z eliga uchib ketadi. To'ti ota-onasi huzuriga borib, kunlarning qanday o'tganini sezmay qoladi va shoh huzuriga qaytish uchun ota-onasidan ruxsat so'raydi. Ota-onasi uning ketishiga ruxsat berishmaydi. Ammo to'ti va'dasi ustidan chiqishi lozimligini aytib so'zida qat'iy turadi. Nihoyat, onasi unga ruxsat berib aytadiki, sen bu yerdan insonni yashartiradigan ikki dona meva olib ket, shoyad shuni bersang, shoh senga o'z elingga qaytishga ruxsat berar.

To'ti mevalarni olib shoh huzuriga yetib keladi. Shoh bu sovg'adan xursand bo'lib, to'tini tutqunlikdan ozod qiladi. Ammo shu payt bu masalaga vazir aralashadi. U aytadiki, shohim bu mevani bir sinab ko'raylik, to'tini undan keyin ozod qiling, deb shu orada bitta mevaga zahar tomizishga ulguradi. Bitta tutqunni keltirib mevani yedirishadi. Tutqun shu zahoti o'ladi. Bundan g'azablangan shoh to'tini boshidan judo qiladi. Ammo sal vaqt o'tgach, yana bir kekxa tutqun o'limga hukm qilinadi. Shoh unga to'ti sovg'a qilgan mevaning ikkinchisini yedirishga buyruq beradi. Tutqun mevani yegani zahoti yosh yigitga aylanadi. Shoh shunda aldanganini sezib, afsus chekadi. Ammo endi kech bo'lgan edi.

Kenja botir bu hikoyani aytib berganidan keyin o'zining aybdor bo'lishi oldidan yuz bergan voqeani oshkor qiladi. Podshoh ishiga pushaymon qiladi. Bu voqeadan keyin uch og'a-ini podsho huzuridan ketishga qaror qilishadi. Podshoning uch qizi ham ular bilan birga saroyni tark etishadi. Ertak ham shu bilan nihoyasiga yetadi.

Darslikda savollar yechimi nihoyasiga yetgach, asar badiiyati haqida qo'shimcha savollar tuzib, bolalarni ijodiy fikrlash sari yetaklash lozim. Savollardan oldin albatta matnda ishlatilgan tushunilishi qiyin so'zlar lug'atini tuzish lozim. Bular: **Istirohat** – dam olmoq, huzur-halovat; **Alhosil** – xullas; **sharpa** – g'ira-shira ko'rinish; **gal** – navbat; **o'rda** – saroy; **kamina** – men; **aqalli** – hech bo'lmaganda; **so'ri** – supacha; **harir** – ipak; **xari** – yo'g'on yog'och; **so'l** – chap; **haram** – saroyning ayollar yashaydigan joyi; **Musofir** – boshqa elning odami; **faqir** – kambag'al; **shashvar** – og'ir; **zakovat** – aql; **qalliq** – mahbuba; sevgili; **avf** – kechirmoq (darslikda avf shaklida noto'g'ri berilgan); **rioya** – andisha; **lahm** – yumshoq tuproq; **cho'ri** – xizmatkor kabi.

Bu so'zlarni doskaga yozib qo'yish va o'quvchilar daftarlariga ko'chirtirib olish kerak bo'ladi.

Qiyin so'zlar sharhlangandan so'ng bir-ikkita savolni o'rta tashlash lozim. Agarda o'quvchilar ularga to'liq javob bera olmasa o'qituvchi uni to'ldirishi zarur.

1-savol: Ertakdagi uch va 40 so'zlari bilan aloqador birikmalar ma'nosini bilasizmi?

Ertak matnida "Uch og'a-ini", "Uch narsa", "Uchta narsa", "Qirq kun to'y-tomosha" kabi birikmalar uchraydi. Ertaklarda 3, 7, 9, 12, 18, 40 kabi raqamlar ko'p uchraydi. Ular an'anaviy raqamlar deb yuritiladi. "Uchta songa asoslangan sanoq usuliga ko'ra "Uch" raqami sanoq-

ning cheki bo'lgani uchun bu songa alohida e'tibor berilgan. Bu raqam o'zbek xalq ertaklarining kompozitsiyasini belgilovchi muhim badiiy elementlardan biridir"¹¹.

2-savol: Ertak matnida qanday ifoda vositalari mavjud? Ushbu savolga javobni aniqroq ifodalash uchun jadval tuzish talab etiladi:

№	Ifoda vositasi	turi	Nima maqsadda ishlatilgan?
1	Uning uchta o'g'li bor ekan, uchovi ham o'qigan, oqu qorani tanigan, yuzlari oyday, o'zlari toyday, yomon bilan yurmagan, yomon joyda turmagan ekanlar.	Saj' (boshlanma)	O'quvchi va eshituvchi e'tiborini jalb qilish uchun.
2	Kechgacha yo'l yurdilar, yo'l yursalar ham mo'l yurdilar.	Saj'	Ertak voqealarini davom ettirish uchun.
3	G'orning ichidan boshi xumday, uzunligi xariday bir narsa o'rma-lab bular sari kela boshladi.	Mubolag'a	Ajdarning bahay-batligini ifodalash uchun.
4	Kumush so'rida 18 yoshlarda-gi bir qiz yotibdi. Oy "mendan" deb talashsa, kun "mendan" deb talashadigan, oq harirga o'ralgan, pirpirab yonib turgan shamni to-mosha qilgan kabi uxlab yotibdi.	Mubolag'a	Qizning juda ham go'zalligini tasvirlash uchun.
5	Oq, nozik badanini oq harirga o'rab yotgan o'n olti yashar qiz-ga cho'lpon yulduzi cho'rilikka tayyor, buning uchun kun gul teradi, oy olma tashlaydi.	Mubolag'a	Qizning chiroyli qomatini tasvirlash uchun.
6	Podshohim, bir qoshiq qonimdan kechsangiz aytaman.	Ertaklardagi an'anaviy ibora	Podshohning shafqatsizligini ifodalash uchun.
7	Tok kuchlanib, chunon hosil qildiki, bargidan ham uzumi ko'p edi.	Mubolag'a	Uzumning hosil-dorligini ifodalash uchun.
8.	Botirlar ipakdek eshildilar.	Mubolag'a	Yigitlarning huzur-halovatga kirishishlarini ifodalash uchun.

¹¹ Jo'rayev M. O'zbek xalq ertaklarida "sehrli raqamlar". – T.: Fan, 1991. – B. 42, 45-betlar.

9.	Devorlarda o'tirganlarning qaqqaygan, chaqchaygan, qora, yuzlari yomonlik ekan.	yarog'-aslaha, peshonalari ko'zlari ko'ngillari o'ylaganlari	Saj'	Qaroqchilarning qo'rqinchli qiyofalarini tasvirlash uchun.
----	--	--	------	---

Ertak tarkibidagi ushbu ifodaviy vositalarning asar voqealarini bo'yoqdor va ta'sirchan tasvirlashdagi rolini yoritib berish o'qituvchi zimmasiga tushadi.

V sinfda adabiy ertaklarni o'rganish

O'tmishda ham, hozirda ham mashhur yozuvchi va shoirlar doimo xalq ijodiyotidan foydalanib, nodir asarlar yaratganlar. Bunga A.Navoiy, M.Gulxaniy, G'.G'ulom, H.Olimjon kabi ijodkorlarning asarlari misol bo'la oladi.

V sinf darsligida H.Olimjonning "Oygul bilan Baxtiyor" adabiy ertagi berilgan.

Avvalo bolalarga adabiy ertak nima ekanini tushuntirish lozim.

Adabiy ertak biror yozuvchi yoki shoir tomonidan muayyan bir ertak syujeti asosida yaratiladi. Ushbu jarayonda adib ertak syujetiga ma'lum o'zgarishlar kiritishi, obrazlarning nomlarini o'zgartirishi, yangi epizodlar qo'shishi mumkin. Ayni paytda ertak nasrda hikoya qilinsa shoir uni she'riy shaklda yozishi ham mumkin.

H.Olimjon ham adabiy ertaklarni yaratishda ana shu tamoyillarga asoslangan. Agar ertak she'riy usul orqali hikoya qilinsa, voqealar ko'tarinki tarzda ifodalanib, uning badiiy-estetik ta'sirchanligi yuksaladi.

Shoir H.Olimjon ushbu asarini yozishda "Oygul bilan Baxtiyor" (F.Abdullayev Beruniy tumanidan yozib olgan), "Malikayi Husnobod" (Namangan viloyatidan yozib olingan. Aytuvchi: H.Xudoyberdi o'g'li), "Erni er qilgan xotin" (M.Afzalov yozib olgan) kabi ertaklarning syujeti va obrazlaridan ijodiy foydalangan.

"Oygul bilan Baxtiyor" adabiy ertagi 1937-yilda yozilgan. Bu asarda insoniyatning azaliy orzusi bo'lgan ozodlik, tenglik, vatanparvarlik kabi g'oyalar o'z ifodasini topgan. Ijodkor ana shu badiiy-este-

tik orzu-umidlarni ilgari surishda xalq ertaklari qahramonlaridan o'z individualligi bilan ajralib turadigan Oygul, Baxtiyor, Darxon kabi obrazlarni kashf etdi.

Shoir adabiy ertagini yaratishda faqatgina ijtimoiy-siyosiy g'oyalarnigina rivojlantirib qolmasdan, balki kompozitsiya, obrazlar tizimi, badiiy ifoda vositalarida ham originallikka erishdi. Ayniqsa shoir, obrazlarning individual qiyofasini yaratishga asosiy e'tiborini qaratgan. Oygul ertakdagi obrazga qaraganda ancha mukammal. U ertakda o'sha davr ayollari dunyoqarashiga mos tasvirlangan bo'lsa, shoir asarida xalq xaloskori darajasiga ko'tarilgan.

Adabiy ertakda ayrim personajlar, salbiy tiplar, epizodlar, makon tasviri ham originallikka yuz burgan. Odatda, ertaklarda makon va zamon noma'lum bo'ladi. Ismlar ham aytilmasdan chol, kampir, yigit, qiz kabi umumlashma nomlar ishlatiladi. Adabiy ertakda esa makon Jambil tarzida berilib, voqealar keyinchalik Jurjon, Susambil kabi o'lkalarda davom etadi.

Bundan tashqari "Oygul bilan Baxtiyor" ertagidagi Xo'ja savdogar, yetti qaroqchi. Shuningdek, "Malikayi Husnobod"dagi qizning otasi, Jurjon shohi shoir talqinida tamoman o'zgartirilgan. Ular hayotiylashtirilib, Oygul obrazi yorqin xarakter kasb etgan.

Ertaklar syujetidagi asosiy detallar ham o'zgarishga uchragan. "Malikayi Husnobod"da quyidagi detallar mavjud: a) bosh qahramonni zindondan qutqargan dono vazir; b) sandiq; va o'tinchi chol; g) Jayxun baliq; d) Cho'pon yigit; e) qiz qulog'idagi baldoqlar. Adabiy ertakda ular quyidagicha:

A) Oygulni zindondan qutqaruvchi shaxs – qul Tarlon; b) sandiq; y) o'tinchi chol; g) Jayxun baliq; d) Baxtiyor, e) Baliq qornidan chiqqan gavharlar.

Ko'rinadiki, shoir ertakdagi voqealarni hayotiylashtirishga intilgan. Chunki vazirning mahkum shaxsni ozod qilishi ishonarsiz. Shu sababli shoir uning o'rniga qul Tarlon obrazini kiritadi. Cho'pon bola – noma'lum shaxs, shu sababli u Baxtiyor obraziga aylantirilgan. Qul qizida oltin baldoq bo'lishi mavhum holat, shu bois muallif ularni baliq qornidan chiqqan gavharlarga almashtiradi.

"Oygul bilan Baxtiyor" adabiy ertagi xalq ertaklari bilan qiyosiy usulda o'rgatilar ekan, o'qituvchi, birinchi navbatda, ushbu asarning xalq ertaklaridan ajralib turadigan tomonlariga asosiy e'tiborni qarat-

shi kerak. Jumladan, shoirning badiiy mahorati, xalq tili boyliklaridan foydalanishi, shakl va mazmundagi o'zgarishlar masalasi yoritib berilishi lozim. Buning uchun o'qituvchi asarda ustalik bilan qo'llanilgan xalq tili boyliklari to'g'risida so'zlashi lozim. Oygulning mardligi, xalqparvarligi, vatanparvarligi, vafodorligini tasvirlovchi misralarini o'quvchilarga topdirib, so'z va iboralar ma'nosini sharhlab berishi zarur. Adabiy ertak qahramonlari obrazi bilan ertakdagi qahramonlar obrazini chog'ishtirayotganda adabiy ertak qahramonlariga xos nutqqa shoirning sayqal berganligini alohida tushuntirishi lozim. Bu yerda Oygul bilan Jurjon shohi nutqlarini qiyoslash jarayonida H.Olimjonning badiiy nutqni qayta ishlashdagi mahoratini ochib berish alohida ahamiyatga ega.

Dars jarayonida xalq ertaklariga xos badiiy nutq, tasvir usuli bilan adabiy ertakdagi uslubni qiyoslash, badiiy nutqning yozma adabiyotdagi o'ziga xosligini tushuntirish orqali bolalarga og'zaki va yozma adabiyotdagi o'zarō farqni anglatish yaxshi natija beradi, ularning badiiy so'z san'atiga qiziqishlari ortadi.

Adabiy ertak bilan xalq ertaklari o'rtasidagi farq asar finalida ham ko'zga tashlanadi.

Xalq ertaklarida hamisha an'anaviy tugallanma "murod-maqсадlari-ga yetdilar" yoki "qirq kecha-kunduz to'y-tomosha berdilar" tarzida beriladi. H.Olimjon esa ertakni yuksak optimizm, ibratli didaktik xulosa bilan nihoyalaydi:

Xon bo'lmasa Jambilda
Qayg'u ham bo'lmas dilda.
Mana bu ota Tarlon,
Hammangizga bosh bo'lur.

Bosh qahramonning xalq ommasi bilan munosabati zolimlarga qarshi ayovsiz kurashi, Jambil xonini taxtdan ag'darib, davlat boshqarishni qul Tarlonga yuklatilishi asar xalqchilligini yuksak darajaga ko'targan. Asar g'oyasi ijtimoiy xarakter kasb etgan.

Dars jarayonida o'qituvchi ushbu masalalarni tegishli misollar orqali batafsil bayon qilsa bolalar adabiy ertak mohiyatini chuqur anglab olishadi.

VI sinfda xalq qo'shiqlarini o'rganish

Xalq qo'shiqlari folklorning eng qadimiy, eng faol, eng yashovchan, eng ommaviy janrlaridan biridir.

Qo'shiq atamasi sal fonetik o'zgarish bilan XI asrda yashagan olimlardan Zamaxshariyning "Muqaddimatul adab", M.Koshg'ariyning "Devon ul-lug'otit turk" asarlarida uchraydi.

Folklorshunos olim Muzayyana Alaviya bu janrga shunday ta'rif beradi: "Qo'shiqlar asosan to'rtlikdan iborat bo'lib, ularning mundarijasi xilma-xildir. Biz to'rtlik deb atagan qo'shiq o'zbek xalqi ichida eng ko'p tarqalgan, kuylanib aytiladigan vazn va qofiyaga ega xalq poeziyasidir"¹².

"O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi" darsligida qo'shiqqa quyidagicha ta'rif berilgan: "Alohida janr ma'nosidagi qo'shiqlar mustaqil to'rtliklardan tashkil topgan va faqat kuylab ijro etishga mo'ljallangan she'riy asarlardan iborat"¹³.

1980 yilda chiqqan darslikda esa yana boshqacharoq ta'rif berilgan: "Asosan mustaqil to'rtliklardan tashkil topgan, tugal fikrni badiiy ifodalovchi, el orasida keng tarqalgan va kuylangan xalq she'ri namunalariga qo'shiq deyiladi"¹⁴.

Bizning fikrimizcha, ushbu keyingi ta'rif ancha mukammal tarzda bayon etilgan. VI sinf darsligida: "Qo'shiq qadimiy lirik janr hisoblanib, kuyga solib aytishga mo'ljallab yoziladi", deya ta'rif berilgan.

Odatda, xalq qo'shiqlarining muallifi noma'lum bo'lib, ular xalq orasidagi so'zga chechan kishilar tomonidan badihago'ylik asosida to'qiladi va ommalashadi.

Yozma adabiyotda esa qo'shiq kuyga moslab ma'lum ijodkor tomonidan yoziladi.

Qo'shiqlar xalq hayotining barcha qirralarini o'z mavzu doirasiga qamrab oladi. Ularda shodlik ham, g'am-alam ham, orzu-umid ham o'z ifodasini topadi.

O'z navbatida, xalq qo'shiqlarining bolalar uchun yaratilgan maxsus turlari ham anchani tashkil etadi¹⁵.

¹² Alaviya M. O'zbek xalq qo'shiqlari. – T.: "Fan", 1959. – B. 19.

¹³ O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – T.: "O'qituvchi", 1990. – B. 143.

¹⁴ O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – T.: "O'qituvchi", 1980. – B. 74.

¹⁵ Bu haqda to'la ma'lumot olish uchun qarang: Safarov O. O'zbek bolalar poetik folklori. – T.: "O'qituvchi", 1985. – B. 250.

Darslikda ham bolalar repertuariga moslashgan uchta qo'shiq berilgan. Birinchisi "Boychechak" bo'lib, u marosim qo'shig'i sanaladi va bahor kirishi bilan bolalar jamoa bo'lib ijro etishadi. Qo'shiqdagi to'rtlik bir ijrochi tomonidan aytilib, ikki misralik naqorotni esa hamma jo'rovoz bo'lib takrorlashadi. Mamlakatimizning ayrim hududlarida bu qo'shiq ilk bahorda boychechak ochilishi bilan eshikma-eshik yurib aytiladi. Qadimdan qishlar bahor kelishini intizorlik bilan kutishgan. Shu sababli, boychechak bahor ramzi sifatida tan olinib, o'sha kun bayram singari keng nishonlangan. Qo'shiqni o'qituvchi bir marta o'qib bergach, uni jamoa bo'lib, ijro qilish yaxshi natija beradi. Bolalar matnini tez o'zlashtirib, o'zlari qo'shiq qilib aytib yurishadi.

Ikkinchi qo'shiq "Chittigul" ham marosim qo'shiqlari turiga mansub bo'lib, bahor paytlari bolalar tomonidan jamoa bo'lib ijro qilinadi. Bu qo'shiqda to'rtlikning ikki misrasi bir bola tomonidan kuylanib, qolgan ikki misra naqorat tarzida jamoa tomonidan xor bo'lib aytiladi.

Qo'shiqlar kuyga moslanib to'qilgani sababli ularning misralari ixcham va sodda tarzda ohangdor, musiqiy tarzda uyushib keladi. Masalan:

Qo'ling qo'lbog'da bo'lsin,

Beling belbog'da bo'lsin,

misralarida tovushlar takrori alliteratsiyani hosil qilayotir. Birinchi misrada q, q, b, b; ikkinchi misrada b, b, b, b, tovushlari takrorlanib poetik ohangdorlikni ro'yobga chiqaradi. Bu esa kuyning jarangdor chiqishiga yordam beradi.

Uchinchi qo'shiq "Boshginam og'riydi" deb nomlangan bo'lib, u o'yin, kuy bilan uzviy aloqadorlikda ijro etiladi. Bu qo'shiqni ham dastlab muallim ifodali qilib o'qib berishi zarur. Keyinchalik ona-qiz dialogi tarzida kuyga solib ijro etilsa, yaxshi samara beradi. Agarda ijroga raqs ham qo'shilsa, uning ta'sirchanligi yanada oshadi. Albatta o'qituvchi bu borada oldindan izlanib, qo'shiqni o'rgatish yo'llarini rejalashtirib qo'yishi shart. Mabodo qo'shiqning Tamaraxonim ijrosidagi plastinkasi yoki audio yozuvi magnitofon orqali eshittirilsa, qo'shiqning badiiy-estetik samaradorligi yuksak darajaga ko'tarilib, o'quvchilar xotirasida bir umr saqlanib qoladi. Ayni paytda ushbu qo'shiqning yumoristik xususiyatini ham ochib

berish lozim. Chunki qiz taqinchoqlarni onasidan bevosita emas, balki bilvosita iltimos qilayotgani qo'shiqda juda maroqli ifodalangan.

2-QISM:

YOZUVCHILAR HAYOTI VA IJODINI O'RGATISH USULLARI

Bobur ijodini o'rgatish tajribasidan

Zahiriddin Muhammad Bobur Amir Temurning Mironshoh degan o'g'li shajarasidan bo'lib, uning beshinchi avlodiga mansubdir.

V sinfo'quvchilari darslikdagi shoir haqida berilgan qisqa ma'lumotni tezda o'qib, o'rganib olishadi. Boburning o'zbek xalqining buyuk o'g'loni ekanini anglatish uchun Prezidentimizning quyidagi so'zlarini oldindan yirik harflar bilan yozib osib qo'yish joizdir: "Bobomiz Zahiriddin Muhammad Bobur nomi bilan har qancha faxrlansak arziydi. O'zbek xalqining dovrug'ini dunyoga taratgan buyuk ajdodlarimizdan farqli o'laroq, ul zot bizni o'tmish tariximizni qadrlashga, kelajakka buyuk ishonch bilan qarashga o'rgatdi".

Keyin esa shoir hayotidagi eng muhim sanalarni ko'rsatuvchi jadvalni bolalar e'tiboriga havola qilish yana ham yaxshi natija beradi.

Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti, ijodiga oid muhim sanalar:

1483-yil 14-fevralda Zahiriddin Muhammad Bobur Farg'ona viloyatining poytaxti Andijon shahrida tug'ilgan.

1488-yilda Bobur birinchi marta Samarqandda bo'lgan va bu shahar bilan tanishgan.

1494-yil 6-iyulda Bobur Farg'ona viloyatining hokimi bo'ldi.

1496-yilda Bobur shoirlar Muhammad Solih va Binoiy bilan ko'rishgan.

1497-yil oxirida Bobur birinchi bor Samarqandni qo'lga kiritgan.

1500-yilda Bobur ikkinchi bor Samarqandni egallagan. U Alisher Navoiy bilan maktublar yozishadi.

1503-yilda Bobur Afg'onistonga ketadi.

1504-yil sentyabrda Bobur Kobulni egallagan. Shu yili u "Xatti Boburiy"ni ixtiro qilgan.

1506-yilda Bobur Hirot shahriga Husayn Boyqaroning ta'ziasiga

boradi va Alisher Navoiy qurdirgan barcha binolar bilan mufasssal tanishib chiqadi.

1508-yil 8-martda Boburning Humoyun ismli o'g'li tug'ilgan.

1511-yilda Bobur Samarqandni uchinchi marta egallagan.

1519-yil iyulda Bobur Samarqand shahridagi Fulod Sultonga o'zining devonini yuborgan.

1528-yil 27-dekabrda Bobur Hindistonda yaratgan she'rlari "Hind devoni"ni tugatgani haqida dastxat chekadi. Bu dastxat-avtograf Boburdan bizgacha yetib kelgan yagona nusxadir.

1530-yil 26-dekabrda Bobur Agra shahrida 47 yoshida vafot etgan.

Boburdan 4 o'g'il – Humoyun, Komron, Askariy, Hindol; Uch qiz – Gulchehra, Gulrang, Gulbadan tug'ilgan.

Ushbu ma'lumotlardan so'ng shoirning ruboiylari tahliliga asosiy o'rin ajratiladi.

Ruboiylar tili ancha murakkab bo'lib, darslikda lug'at berilgan. Ammo qiyin so'zlarning barchasi lug'atda qamrab olinmagan. Shu sababli, tubandagi so'zlarni ham albatta sharhlash lozim:

"Vaqoe'" – Boburnoma,

Turfa – turli, g'aroyib,

Chu – shu sababli.

Shuningdek, Bobur biografiyasida **imperiya** degan so'z bor. Bu so'zga ham yirik, **ko'p millatli davlat** tarzida sharh berish lozim. Ma'lumki, Bobur ruboiylari real hayotning badiiy ifodasidir. Shu sababli ularda shoir hayoti bilan bog'liq Vatan sog'inchi, hijron azobi, afsus-nadomat, jabru jafu kabi motivlar asosiy o'rinni egallaydi. Bu borada "Tole' yo'qi..." deb boshlanuvchi ruboiy ayniqsa xarakterli bo'lib, uni muallim Bobur hayoti bilan bog'lab keng va batafsil tahlil qilishi shart.

Dars jarayonida darslikda ko'zda tutilganidek ruboiy janri haqida nazariy ma'lumot beriladi. Bu janrning oddiy to'rtlikdan farqini misollar yordamida ochib berish zarur.

Darslikdagi nazariy ma'lumotda qayd qilingan "xos hol", "xos ma'no" birikmalarining mazmunini yoritish lozim.

"Xos hol" shuki, ruboiy albatta a, a, b, a tarzida qo'fiyalanishi shart. "Xos ma'no" shuki, ruboiylarda tabiat va jamiyat bilan aloqador ijtimoiy-falsafiy g'oya ustuvor bo'lishi kerak.

Boburning "Har kimki..." deb boshlanuvchi ruboiysiga razm solsangiz uning aforizm darajasiga ko'tarilganiga qanoat hosil qilasiz.

Albatta, oddiy xalq qo'shiqlarining ham to'rtlik shakli ruboiy tarzida qo'fiyalanishi mumkin. Ammo ulardagi ma'no ko'proq his-hayajon bilan aloqador bo'ladi. O'qituvchi ruboiyga xos xususiyatni ochib berish uchun albatta bitta-ikkita to'rtlikni misol tarzida keltirib qiyosiy tahlil qilsa yanada tuzuk bo'ladi.

Bobur ijodini o'rganish jarayonida ko'rgazma material sifatida uning asarlariga ishlangan miniatyuralardan foydalanish mumkin. Shuningdek, Bobur g'azallariga aytilgan ashulalar eshittirilsa, yanada yaxshi natija beradi. Albatta dars nihoyasidan so'ng bolalarga shoir ruboiylaridan ayrimlarini yod olish vazifa qilib berilsa, o'quvchilar ularni yod olib hamisha lozim bo'lgan paytlarda aytib yurishadi. Qolaversa, mazkur ruboiylardagi g'oya ularning hayotida o'ziga xos tarbiya maktabi bo'lib xizmat etadi.

V sinfda H.Olimjon ijodini o'rganish

XX asr o'zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri, o'zbek xalqining ardoqli shoiri Hamid Olimjon o'zining sermazmun ijodida xalq baxti va shodligini, do'stlik va birodarligini kuylab, ona Vatanni madh etdi.

Bo'lajak shoir yoshligidanoq badiiy adabiyotga, xususan, she'riyatga juda qiziqqan. To'rt yoshida otadan yetim qolgan Hamid ma'rifatli bobosi Mulla Azim va oqila onasi Komila opa qo'lida tarbiyalandi.

Shoir biografiyasini yoshlarga o'rgatish uchun avvalo H.Olimjon hayotidagi eng muhim sanalar jadvalini tuzib, ko'rsatmali qurol sifatida osib qo'yish lozim.

1909, 12 dekabr. Jizzax shahrida tug'ildi.

1918-1923. Jizzax shahridagi Narimonov nomli to'liqsiz o'rta maktabda o'qidi.

1923-1928. Samarqand bilim yurtida tahsil oldi.

1928-1931. O'zbekiston pedagogika akademiyasida bilim oldi.

1926. "Zarafshon" gazetasida dastlabki she'rlari e'lon qilindi.

1927. "Zarafshon" gazetasida bo'lim boshlig'i vazifasida ishladi.

1929. "Ko'klam" nomli birinchi she'rlar to'plami bosilib chiqdi (30 ta she'r).

1932. Toshkent shahriga ko'chib kelib hozirgi Til va adabiyot institutida xizmat qiladi.

1938-1939. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida mas'ul kotib, buyuk o'zbek shoirining 500 yilligi munosabati bilan tuzilgan Navoiy qo'mitasida mas'ul kotib qilib tayinlanadi.

1942. "Ona va o'g'il" she'riy to'plami chop etildi.

1943. "Qo'lingga qurol ol!", "Ishonch" she'riy to'plamini e'lon qildi.

1943. O'zRFA akademigi qilib saylanadi.

1944, 3-iyul. Avtomobil halokati natijasida bevaqt vafot etdi.

Shoir biografiyasini o'rganishda uning hayoti bilan oshno bo'lgan shaxslarning esdaliklari katta yordam beradi. O'sha esdaliklar o'qib eshittirilsa, bolalar uni qiziqib tinglashadi va eslarida saqlab qolishadi.

Bolani onasidan ko'ra yaxshi biladigan insonni topish qiyin. Bunga H.Olimjonning onasi Komila opaning shoir haqidagi xotiralari misol bo'la oladi.

Bo'lajak shoir yoshligidan boshlab ziyrak va zukko inson bo'lib voyaga yetdi. Shoirning yoshligi haqida uning onasi Komila opa shunday hikoya qiladi: "Sakson uch yoshga kirdim. Haliyam ko'z o'ngimda Abdulhamid ziyrak, sho'x, hazilkash, mehribon, sirixday kelishgan.

Bir o'timiz bor edi. Abdulhamid shu o'tni ertayu kech boqardi. Otasi ham shu o'tga ko'p mehr qo'ygandi. Yaxshi semirgandan so'ng sotib, senga xarajat qilaman, deb bolani qiziqtirardi. Abdulhamid o'roqcha, arqon olib, kichkinagina bog'imizga ketardi. Shu bog'dan o't o'rib, yelkasida ko'tarib kelardi...

Maktabga ixlos bilan qatnardi. A'lochi bo'lib o'qirdi. Shahrimizda Hazratqulboyvachcha, Sharifboyvachcha bor edi. Shular o'g'il to'y qilishdi. Bu boylarning bolalari Abdulhamid bilan birga o'qirdi. Maktab bolalari bilan to'yga kelishgan. Bolalar osh yeb bo'lishgach, o'sha yerda o'tirganlardan biri domlaga: "Bolalaringizdan birontasi bizga she'r o'qib bersin", deb iltimos qilishibdi. Innaykeyin domla: "Hali biz bularga she'r yozishni o'rgatganimiz yo'q, lekin yodlagan she'rlarini o'qib berishlari mumkin", debdi. "Kim o'qiydi?" deb so'raganlar. Shunda domla: "Mana bu bola Azimboboning nevarasi. Olim qoridan qolgan o'g'il. Shu o'qiydi", debdi. Innaykeyin Abdulhamid supaga chiqib she'r o'qib beribdi.

O'tirganlar: "Yosh bola ham she'rni shunday qiroat bilan yoqimli o'qiydimi", deyishgan. Ular o'sha yerda Mulla Azimni ko'rib, "Juda yaxshi o'qirkan, bironta bilim yurtiga yuboring", deyishgan. Qaynotam ham "Mayli yuboramiz", debdi. Buni eshitganimdan so'ng, "yubor-

mayman", deb ko'zyoshi qildim... Abdulhamid: "Men ot boqib yurave-
ramanmi yo'q, o'qishga boraman", deb turib oldi. Shundan keyin Sa-
marqandda, bilim yurtida o'qiy boshladi".

Komila opaning ushbu xotirasida o'g'li Hamid mehnatsevar, o'qish-
ga intiluvchan, irodali, she'riyatga o'ch, shirador ovozli bola ekanligi
ko'zga tashlansa, onaning quyidagi qaydlarida uning quvonch va shod-
likka to'lib, kuylab yashaganining, xalq og'zaki ijodiga mehri baland-
ligining sabablarini, uning ildizlarini sezamiz.

"Abdulhamid 4 yoshga to'lar-to'lmas, dadasidan ayrildi. Olim aka-
ning farzandga bo'lgan binolari zo'r edi. Abdulhamidning o'tkir odam
bo'lishiga u kishining ko'zlari yetardi. "Bo'ladigan bola boshidan
ma'lum", deb shuni aytisalar kerak-da. Har holda, kim biladi, u kishi-
ning "yozuvchi bo'lasan", degan ishonchlari qattiq ekanmi, bolaginam
yoshligidan boshlab cho'pchaklarni tinglagani-tinglagan, o'zi ham
ertayu kech nimalarnidir yozgani-yozgan edi. Uning qistovi bilan men
kechalari ertak aytganim-aytgan edi. U men aytgan ertaklarga miriq-
may turib uxlay olmasdi. Xalqning g'aroyib ertaklariga u juda qoyil
qolardi, unga alohida manzur bo'lgan".

Hamid Olimjonning hayoti haqida uning turmush o'rtog'i O'zbekis-
ton xalq shoiri Zulfiyaxonimning esdaliklari ham nihoyatda qimmat-
lidir. U Hamid Olimjon haqida shunday yozadi: "Hayotimning o'n yili,
faqatgina o'n yili Hamid Olimjon bilan hamnafas va hamqadam o'tgani
men uchun ulkan baxt bo'ldi... Ulkan shoir, o'z ona tili va adabiyot-
ining bilimdoni, kam uchraydigan qobiliyati va intizom sohibi, do'st-
larga mehribon, dushmanlarga ayovsiz Hamid Olimjon mening faqat
turmush o'rtog'im va farzandlarimning otasi bo'libgina qolmasdan,
ayni chog'da qalbim va ruhimga uyg'un hamrohim va sezgir maslahat-
chim ham edi. Men undan fikrlashni, mehnat qilishni va she'r yozishni
o'rgandim. Uning ijod maktabida ta'lim oldim"¹⁶.

Ma'lumki, Hamid Olimjon "O'n besh yoshida qalam tebratgan",
yigirma yoshida elga tanilgan, 25 yoshida Amerika, Fransiya gaze-
talarida nomi tilga olina boshlagan, 30 yoshida o'zbek adabiyotining
bayroqdori bo'lgan, o'zbek yozuvchilarining irodali rahbari darajasiga
ko'tarilgan...¹⁷

¹⁶ Zulfiya. Adabiy o'ylar. Toshkent "Fan". 1985. – B.14.

¹⁷ Umurov H. Qo'sh-qanot sehri. – T.: "Adabiyot va san'at", 1982. – B.84.

U, o'zbek she'riyatining yuksalishiga katta hissa qo'shgan buyuk
iste'dod sohibidir.

Shoirning "Zaynab va Omon", "Oygul bilan Baxtiyor", "Semrug'
yoki Parizod va Bunyod" dostonlari, "Roksananing ko'z yoshlari",
"O'rik gullaganda", "O'zbekiston" kabi she'rlari, "Muqanna", "Ji-
noyat" she'riy dramalari o'zbek adabiyotining oltin fondidan joy oldi.

H.Olimjonning bu asarlari yuksak poetik ruhga ega bo'lgan, do'st-
lik, vatanparvarlik va qahramonlik kabi yuksak fazilatlarini ulug'lovchi
baquvvat ijod namunalaridir.

Shoir yoshligidanoq folklor asarlariga qiziqib, bir vaqtlari onasidan
eshitgan ertaklar asosida ajoyib dostonlar yaratdi. Bolalik paytlarida
Fozil Yo'ldosh o'g'lidan tinglagan ulkan o'zbek eposi "Alpomish"ni
ilk bora kitob shaklida chop qildirdi.

Shoirning "Oygul bilan Baxtiyor", "Semrug' yoki Parizod va Bun-
yod" adabiy ertaklari hozirgacha yoshlarning sevimli asarlari sifatida
yashab kelayotir.

Zulfiya hayoti va ijodini o'rgatish tajribasidan

Umumta'lim taktablarining VI sinflarida Zulfiya hayoti va ijodini
o'rgatish rejalashtirilgan.

O'zbek xalqining ardoqli shoirasi hayoti va ijodini yoshlarga
o'rgatish o'ziga xos ibrat maktabidir. Shoir hayotini, uning salmoqdor
ijodini, umuman Zulfiya qiyofasini o'quvchilar ko'z oldida jonlantir-
ish uchun dastlab adiba haqida buyuk kishilar tomonidan bildirilgan
fikrlarga to'xtalish maqsadga muvofiqdir. Masalan, Prezidentimiz
Islom Karimov shoiraning 80 yillik tavallud to'yi munosabati bilan
yo'llagan qutlovida shunday yozgan edi: "Siz Gulbadanbegim, Zebuni-
so, Uvaysiy, Nodirabegim kabi Sharqning buyuk fozila ayollari bosh-
lagan an'analarni boyitib, yangi pog'onaga ko'tardingiz. Mehribon va
talabchan ustoz Zulfiyaxonimning mahorat maktabidan ko'plab yosh
iste'dodlar bahramand bo'ldilar" (O'zAS. 2006, 17 mart).

Bunday yuqori baho barcha shoirlarga ham muyassar bo'lavermaydi.

Ma'lumki, Zulfiyaning dovrug'i jahon bo'ylab taralgan. Shu sababli
uni buyuk yozuvchilar, taniqli siyosatchilar ham tanishadi, uning ijodi-
ga yuqori baho berishadi. Shunday taniqli yozuvchilardan biri o'z asar-
lari bilan butun dunyoga tanilgan Chingiz Aytmatovdir. Zulfiya haqida
buyuk adib Chingiz Aytmatov shunday yozadi: "O'zbek shoirasi Zul-

fiyaning qutlug' qalami tufayli Sharq adabiyotiga san'atkor ayol kirib keldi, yosh va iqtidorli shoirlar butun bir pleyadasining ovozi baralla yangray boshladi" (O'zAS. 2005, 25 fevral). Chingiz Aytmatovning bu fikri hozirda ham o'z qimmatini yo'qotgan emas. Chunki, bugungi kunda har yili o'nlab yosh iste'dodlar "Zulfiyaxonim qizlari" qatoridan munosib o'rin egallamoqdalar. Adiba ijodini o'rgatish jarayonida uning safdoshlari tomonidan bildirilgan fikrlar, uning ijodiga berilgan yuksak baholar, ayniqsa, qimmatlidir.

Shoira lirikasining badiiy qimmati, adibning ijtimoiy faoliyati haqida shoir Mirtemir shunday deydi: "Zulfiyaxonim she'riyatimiz va madaniyatimizning chinakam faxridir. Qalamkash sifatida, qalamkashlarning eng oldingi qatorida qadam tashlayotgan zahmatkash sifatida, muharrir sifatida, arbob sifatida u biz uchun qadrlı va o'ta sevimli"dir.

Folklorshunos olim M. Alaviya: "Zulfiya tabiatidagi bir sifat shuki, shavq o'ti alanganmasa, samimiyat yog'dusini sochmasa, she'r ham yozmaydi, so'zga ham chiqmaydi. Suvga quyosh nuri tushsa, toshib ketmaganidek, oriflarga qancha fayz tushsa ham haddilaridan oshib ketmaydilar. Buni biz Zulfiya siymosida yaqqol ko'ramiz. Odam yuqoriga chiqqan sari yiroqni ayon ko'radi!" (O'zAS. 17 mart).

Zulfiyaxonimning farzandlari, qarindoshlari ham adabiyotni chuqur idrok qiladigan yuksak ma'naviyatli shaxslardir. Hassos shoir H. Olimjonning jiyani, adabiyotshunos, filologiya fanlari doktori, Samarqand davlat universiteti professori Hotam Umurov shoira she'riyatining jonkuyar tadqiqotchilaridan biridir. Jumladan, u Zulfiya lirikasiga shunday baho beradi: "Uning har bir she'ri – quyoshdan uzib olingan o't parchasi singari haroratli, yolqinli, o'qiganing hamon yurakni tug'yonga soladigan darajada otashin, kurashga, yangi qahramonliklarga chorlovchi, tashvish va shodlikka to'la ajib bir qo'shiqdir".

Shoiraning qizi O'zMU dotsenti Hulkar Olimjonovanning ayasi haqida aytgan fikrlari o'quvchilar uchun ayniqsa qiziqarli va qimmatlidir. "Biz ayamizning nomlari abadiylashtirilishini orzu qilgan edik. Poytaxtimizdagi yangi ochilgan ko'chalardan biriga Zulfiyaxonim nomi berildi. Davlat mukofotining ta'sis etilishi esa shoira nomini abadiylashtirishining go'zal bir shakli bo'ldi!" (O'zAS. 2003 yil, 14-mart).

Hulkar Olimjonova ushbu faxrlı so'zlarini 2003-yilda aytgan. Agar-da hozirgi kunda shoira haykalining poytaxt markazida qad ko'targani-

ni e'tiborga olsak, uning minnatdorchiligini tasavvur qilish barchani xursand qilishi tabiiydir.

Ushbu esdaliklarni oldindan tayyorlab, sinf xonasiga ilib qo'yish juda yaxshi natija beradi. Ular haqida muallim axborot bergandan so'ng Shoira biografiyasiga o'tish lozim.

Zulfiya Isroilova 1915-yilda Toshkentda hunarmand oilasida tug'ilgan. Shoiraning o'zi bu haqda shunday yozadi: "Men Toshkentda tug'ilganman. O'shanga ham mana ellik yil bo'libdi. Bundan shuncha yillar muqaddam, albatta, zamon ham, shahar ham, odamlar ham, hayot ham bo'lakcha, nurli, bugungiga sira o'xshamagan edi.

Men o'zim tug'ilib o'sgan uyni eslayman. Yozda tuproqqa, qishda loyga botib, ko'chamizning trotuari bo'lmagani uchun, devorlarni ushlab uyimizga kirar edim. Lekin hovlimizni bog' deb atar edilar. Biz asli Toshkentning Degrezlik mahallasidanmiz. Bobomni Muslim degrez deb atar edilar. Dadam... dadam desam, qonimga shirin va alamli hayajon yugurganini hamma vaqt his qilaman, dadamning mehnatli katta hayoti, taqdir uning boshiga solgan qator uqubatlarning alami mening tomirlarimni qayta-qayta kesib o'tganini sezaman. Dadam va dadamning besh inisi o'z oilalari bilan ahillikda jannatday obod qilgan hovlida, o'sha bog'da yashar edi. Bu o'qchi mahallasida edi. Bu hovli o'sha vaqtda tushunchamda juda katta bog' edi. Xayolimda boshiga etolmayotganday edim. O'sha hovliga hozir qarab hayratlanaman – nimasi katta ekan? Endi bu erda otalarning farzandlari, o'z otalariday, ahil, mehnatkash qilalar yashaydi. Onamning mirishkor qo'llarining gullari – sadarayhon, oshrayhon, gulxayri, atirgullar hayotimizni muattar qilar, uch kelini va ikki qizini birday sevgan xushtabiat, hamishalik go'zallik asirasi bo'lgan onam qishin-yozin o'smani qulf urdirib o'stirib qo'yar edi. Kim biladi, bu go'zallik – tabiatday saxiy, musaffo dilning qo'shig'i, she'rlari bo'lishi hech ajab emas"¹⁸.

Adib biografiyasini hikoya qilganda uning o'zi tomonidan yozilgan tarjimai holi real va ishonarli bo'ladi. Uni o'quvchilar qiziqib tinglashadi. Shoiraning o'z biografiyasi bayonidan keyin uning ijtimoiy faoliyatini yoritish zarur.

Darhaqiqat, Zulfiyaxonim o'zbek shoirasi, publitsisti va jamoat arbobi. O'zbekiston xalq shoiri (1965), Neru (1968), Hamza (1969) va Nilufar mukofotlari laureati (1970). Dastlab xotin-qizlar pedbilim

¹⁸ Adabiyotimiz avtobiografiyasi. – T.: "Adabiyot va san'at". 1973. – B. 245.

yurtida (1933) va Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedinstitutida ta'lim oldi. (1933-1935) 1935-1938 yillarda O'zRFA Til va adabiyot institutida aspirantlik muddatini o'tadi. Keyinchalik Respublika bolalar va yoshlar adabiyoti nashriyotida muharrir (1938-1940), O'zbekiston Davlat nashriyoti badiiy adabiyot bo'limi mudiri (1941-1950), 1950-1952 yillarda "O'zbekiston xotin-qizlari" (hozirgi "Saodat" jurnal-da bo'lim mudiri va 1953 yildan umrining oxirigacha bosh muharriri bo'lib ishladi. O'sha yillarda bu jurnal nafaqat xotin-qizlarning, balki butun ommaning sevimli hamrohi bo'lib qoldi. Xalq ma'naviyatini yuksaltirishda asosiy kuch bo'lib xizmat qildi.

Shoiraning ijodi 1930 yildan boshlangan. Birinchi she'rlar to'plami "Hayot varaqalari" (1932)da yangi hayot nash'alari, erk va ozodlik taronalarini kuylaydi. "Qizlar qo'shig'i", "She'rlar" (1939) to'plamlarida erkin yashash huquqiga ega bo'lgan va jamiyat hayotining barcha sohalarida faol ishtirok etayotgan xotin-qizlarning kurashi, quvonchi, mehnati va muhabbati poetik umumlashtirilgan.

Ikkinchi jahon urushi yillarida "Hulkar", "Uni Farhod der edilar" (1943), "Hijron kunlarida" (1944) va boshqa to'plamlari nashr etildi. Urush mavzuiga atalgan barcha she'rlarida ("Qo'limda qurol-u, ustimda shinel", "Gullar ochilganda", "Ikkinchi maktub", "Bizni kut", "Yigitlarga" va boshqa) ma'shuqaning oshiq yigitga xati orqali front hayoti va mamlakat ichkarisidagi hayot, vatanparvarlik va insoniylik, jasorat va g'alabaga ishonch ruhi aks etgan. "Uni Farhod der edilar" poemasi (1943) fashistlarga qarshi olib borilgan janglarda qahramonlarcha halok bo'lgan san'atkor Qobilqori Siddiqovning yorqin xotirasiga bag'ishlangan.

1944-yil 3-iyulda Zulfiyaning hayot yo'ldoshi, she'riyatdagi ustози atoli shoir Hamid Olimjon halok bo'ldi. Zulfiyaxonim turmush o'rtog'i H.Olimjon xotirasini o'zining sevgi va hijron motivlari bilan to'liq asarlarida abadiylashtirdi.

Darhaqiqat, adibning ma'naviy hayotida shoir H.Olimjon katta rol o'ynadi. Bu haqiqatni ko'plab atoli shoirlar ham o'z esdaliklarida e'tirof etishadi:

Ramz Bobojon: "Men Zulfiyani Hamid Olimjonsiz, Hamid Olimjonni Zulfiyasiz tasavvur qila olmayman. Go'yo ular nazdimda bir baytning ikki satri, hamohang, hamfikir, hamdard". (O'zAS. 25 fevral).

Shoira turmush o'rtog'i halok bo'lgandan so'ng bir umr unga sodiq

qolib, shoir ishlarini davom ettirdi. H.Olimjonning "Semurg", "Zaynab va Omon" dostonlari asosida pyesa va opera librettolar yaratdi. Bundan ilhomlanib o'zi ham "Quyoshli qalam", "Mushoira", "Xotira siniqlari" kabi poemalar yozdi. Rus, ukrain, ozarbayjon, hind shoirlari she'rlarini o'z ona tiliga o'girdi.

Shoiraning eng yaqin shogirdlaridan biri, hozirda uning o'rnida "Saodat" jurnaliga muharrirlik qilayotgan Oydin Hojyievaning ustози haqidagi samimiy so'zlari ham e'tiborga loyiq: "Zulfiyaxonim mamlakatimizda ro'y bergan istiqlolni zo'r mamnuniyat bilan qarshi oldi. Istiqlolning dastlabki yillarida 1994-yilda "Do'stlik" ordeni bilan taqdirlanganida juda suyungan edi. "Qanchadan-qancha mukofotlar, siylovlarni ko'rdim, lekin hech birisi mustaqil Vatanimizning birinchi ordeniday shodlantirmagan", degandilar ustoz.

1995-yil may oyida Zulfiyaning 80 yillik yubileyi milliy bayramga aylanib ketgan edi. Adabiyot muxlislariga, xalqimizga behad go'zal shodlik va iftixor tuyg'ularini bag'ishlagan, xalqimizning qadru qiyamatini baland ko'targan fayziyob kunlar edi u damlar. Shoira 80 yoshida "Xotiram siniqlari" dostonini e'lon qilganida adabiy jamoatchilik, nomdor olimlar, sakson yoshda ham shunchalar o'tli, alangali doston bitish mumkinmi deb hayratga tushgandilar. Zulfiya pinhona yo'llariga ko'z tutgan Ozodlik, Erkinlik, chinakam Hurriyat kelganidan va uni ko'rishga, qutlashga muyassar bo'lganidan baxtiyor edi".

O'zbek xalqining ardoqli farzandi Zulfiyaxonim 1996-yilda 81 yoshida vafot etdi.

VI sinf "Adabiyot" darsligida shoira biografiyasi va "Nevara", "Bog'lar qiyg'os gulda", "Men o'tgan umrga" kabi she'rlarini o'rgatish rejalashtirilgan. Zulfiya biografiyasi atroficha o'rganilgandan so'ng uning mazkur she'rlarini tushunarli tarzda chuqur tahlilga tortish lozim.

She'rlar tahlili jarayonida ularning mazmunini hikoya qilishdan iborat eski an'anadan chetga chiqib, ularning badiiy-estetik mohiyatini yoritishni asosiy maqsad qilib qo'yish zarur.

Shoira "Nevara" she'rini o'zining Ulug'bek ismli nevarasiga bag'ishlagan. Unda asov toyday talpinib turgan yosh o'spirinning harakatlari umumlashtirilgan. Shoira she'rida nevarasining harakatlarini kuzatar ekan, bola jismida bobosi Hamid Olimjonning qoni ko'pirayotganini ichki bir tuyg'u bilan eslaydi va bu yosh o'spirinning istiqboli haqida o'y suradi.

Nevaraning tabiatning nodir tuhfası ekanini e'tirof etib, agarda tabiat insonga ushbu taqdirni ravo ko'rmasa, insonning o'zi uni kashf etishi muqarrar edi, degan falsafiy xulosaga keladi.

She'rni ifodali o'qishdan oldin undagi ayrim so'zlarni izohlashga to'g'ri keladi. Bular quyidagilar:

Shekil – shekilli so'zining qisqa shakli.

Dakan – varrak.

Kibor – baland, yuksak.

Siyog – go'yo so'zining sinonimi, siyoqli.

Tiyrak – ziyrak, zukko.

Fazo – osmon.

Murg'ak – go'dak.

She'r tarkibida ko'pgina badiiy ifodalar qo'llanilgan. Ularni tubandagi jadvalda ko'rish mumkin.

Ifodaning berilishi	Nomi	Maqsadi
Qop-qora ko'zlari	Sifatlash	Ko'z rangini ifodalash
Quyunday otilib...	O'xshatish	Harakat tezligini ifodalash
Ko'zlari yurar	Jonlantirish	Kuzatishni ifodalash
Varrakboz jonga	Metafora	Bolani nazarda tutish
Ko'kish alangada	Sifatlash	Osmon rangiga ishora
Borlig'i ezgu bir o't bo'lsa kerak. Tomirlarda qonmas kezadi quyosh	Mubolag'a	Bola qiyofasini ko'rsatish
Tiniq, zangori fazo	Sifatlash	Osmon ko'rinishini anglatish.
Naq xayol	O'xshatish	Tezlikni ifodalash.

She'rni bolalarga ifodali qilib o'qib berish zarur. Buning uchun uning misralaridagi so'zlarga mantiqiy urg'ularni qo'yib chiqish lozim. Mantiqiy urg'ular shoiraning ta'kidlamochi bo'lgan so'zlariga tushadi. Masalan: Nevaram quyunday otilib kirib, misrasida mantiqiy urg'u quyunday so'ziga tushadi.

Shoiraning "Bog'lar qiyg'os gulda" she'ri do'stlik, birodarlik, ahillik, vatanparvarlik kabi insoniy fazilatlarini ulug'lashga bag'ishlangan. Buning uchun shoira daraxt timsolini tanlaydi. Har bir daraxtning o'ziga xos ko'rki, tarovati bo'lganidek, har bir xalqda ham o'ziga xos alohidalik mavjud. Mamlakatimizda turli xalqlar istiqomat qilishadi. Ularni

o'zbek xalqi orqa tog' sifatida ardoqlaydi, ular bir-biriga suyangan holda tinch-farovon hayot kechirishadi.

She'rda bolalar tushunmaydigan ayrim so'zlar lug'atini tuzishga to'g'ri keladi:

Anvoyi – turli navdagi gullar

Tarovat – go'zallik

Ro'y – yuz, ko'rinish, qiyofa

Burch – vazifa, qilinishi shart bo'lgan ish

Bedaxl – daxlsiz, mustaqil.

Shuningdek, she'rdagi **serzavq**, **serjilo** kabi sifatlashlar, **jon tomir** **go'yo** kabi o'xshatishlar, **bir dunyo bir olam** kabi mubolag'alarning mohiyatini ochib berish zarur. Ushbu ifodalarning badiiy nutqqa sayqal berishini tushuntirish lozim.

Shoiraning "Men o'tgan umrga" she'ri ham alohida e'tiborga loyiq. Ushbu she'rda lirik qahramon sifatida shoiraning o'zi gavdalanadi. U hayotda ko'plab qiyinchiliklarga uchrasada, eng yaqin kishisidan judo bo'lsada, hayotga umidli ko'z bilan boqadi, unga shukrona aytadi. Hayot go'zalligidan zavqlanadi, tevarak-atrofidagi yaqinlari, nevara-chevaralarining bo'yiga boqib faxrlanadi. Albatta, bu she'rda ham yosh o'quvchilar tushunishi qiyin bo'lgan so'zlar uchraydi. Shu sababli qisqagina lug'at tuzish foydadan xoli emas. Masalan:

Kimxob – ipak mato

Saboh – tong

Og'ush – quchoq

She'rdagi **telbacha suydım**, **ayrildım**, **kuydım** kabi obrazli birikmalarni atroficha sharhlash kerak bo'ladi. Chunki ushbu ifodalarda shoira hayotining eng nozik nuqtalari mujassamlashgan.

Hayot kitobini bexos varaqlab...

Meni og'ushlagan hayot naq oftob...

kabi misralar mazmunida nimalar ko'zda tutilgani ham o'qituvchi nigohidan chetda qolmasligi kerak. Chunki birinchi misrada shoiraning hayot yo'li, ikkinchi misrada istiqolol yillaridagi ozod va farovon hayot ko'zda tutilgan. O'qituvchi ushbu masalalarni butun tafsilotlari bilan birga bayon qilishi lozim bo'ladi. Shundagina shoira hayoti va ijodi haqida o'quvchilar to'la tasavvurga ega bo'lishadi.

V sinfda G'afur G'ulom hayoti va ijodini o'rganish

Bolalarning sevimli shoiri bo'lgan G'afur G'ulom ijodini o'rganish g'oyat maroqlidir. Yoshligidan yetim qolib, darbadarlikni boshidan kechirgan shoir o'z ijodining salmoqli qismini bolalarga bag'ishladi. G'afur G'ulom tug'ilib, ko'z ochgan dunyo nihoyatda murakkab edi. To'qqiz yoshida boshiga oila tashvishi tushgan yosh o'spirinning o'sha alg'ov-dalg'ov zamonda boshidan kechirgan sarguzashtlari uning ijodida hamisha aks-sado berib turdi.

Adibning murakkab hayot yo'li uning o'zi yozgan tarjimayi holida har tomonlama batafsil va qiziqarli hikoya qilingan:

“Men 1903-yil 10-may, juma kuni erta bilan soat 6 da tug'ilgan ekanman. Bu dehqoncha yil sanog'i bilan baliq yili bo'ladi. Tug'ilgan yerim Toshkent shahri, Shayxontohur daha, Qo'rg'on-tegi mahallada. Men tug'ilganda otam G'ulom Mirza Orif o'g'li 35 yoshda, onam Tosh-bibi Shoyusuf qizi 21 yoshda ekan. Ko'pincha kerak bo'lib qolganda otamning nima ish qilib tiriklik o'tkazganini aniq ayta olmayman. “Dehqon” deb qo'ya qolaman. Kalas atrofida 5-6 tanob yeri bo'lib, unga bug'doy, jo'xori, mosh deganday, don-dun ekar ekan. Qolgan vaqtlarda umrini shahar ichida o'tkazar ekan. Otam durustgina savodli, o'zbekcha, tojikchani yaxshi bilar va uncha-muncha ruscha ham so'zlashar ekan. Shahar ichida kishilarga ariza, spravkalar yozib berib yurar, shuning uchun ham ismiga “Mirza” degan laqab qo'shimcha bo'lgan ekan.

Otam adabiyot bilan juda qiziqar ekan. Uyimizga o'zbek shoirlari va xattotlaridan Xislat, Shomurod kotib va boshqalar kelib yurganini es-es bilaman. Farg'ona vodiysidan keladigan shoirlar ham: Muqimiy, Toshxo'ja Asiriy, Furqat, Muhyi va boshqalarning biznikiga ko'p kelganini aytadilar. Otam “Mirza” va “G'ulom” taxalluslari bilan talay she'rlar yozgan. Lekin bular bir yerga to'planib, yo bo'lmasa bosilib chiqqan emas. So'nggi yillarda amakim (otamning kichik ukasi) Mirza Abdulla Mirza Orif o'g'li “Mirza” taxallusini o'ziniki qilib olib, she'rlar yozar edi. Uning “Bayozi Mirzo” degan kitobi 1913 (1331 hijriy) yilda Toshkentda “G'ulomiya” bosmaxonasida bosilgan.

Onam ham o'zbekcha, tojikcha adabiyotlarni o'qib, anglay oladigan zehnlı xotinlardan edi. O'zi she'r havaskori bo'lganidan, xalq og'zaki termalari vaznida uncha-muncha she'rlar aytib yurganini eslayman. Bulardan, ayniqsa, otam o'limiga bag'ishlab aytgani hali ham quloqlarimdan ketmaydi...

Otam 1912-yilda, 44 yoshida mazkur Qo'rg'on-tegi mahalladagi o'z hovlimizda vafot qildi. Hovli bo'lganda ham qanday deng?! Qo'rg'on-tegida, 25 kvadrat sarenli zaxkash, tutday to'kilay deb turgan bir hovli-da o'pka shamollashidan o'ldi. Unga hech kim doktor ham chaqirgani, banka ham qo'ygani yo'q, pensillin bilan ham ukol qilgani yo'q. Biz besh yetim bola qola berdik. Men 9 yoshda, eng kichik singlim Bahri 6 oylik edi...

Men bu yoshda allaqachon savodim chiqqan. Navoiy, Hofiz, Sa'diy-larni bemalol o'qir edim, chiroyligina xatim ham bor edi. Bunchalik tez-fahmlikni biz o'qigan eski maktablardan kutish qiyin edi. Masalan, bizning mahallalik Abdurahmon Pari degan yigit 16 yilda ham “Haf-tiyak”dan chiqmagan edi. Mening savodli, xatli bo'lishimga boshda otam, so'ng onam sabab bo'ldilar”¹⁹.

O'quvchilarga adibning biografiyasidagi ushbu lavhani o'qib eshit-tirish bo'lajak shoir haqida ularda dastlabki tasavvurni shakllantiradi. Keyin muallim adib hayotidagi asosiy sanalarni ko'rsatmali qurolga yozib, devorga ilib qo'yishi lozim.

1903. 10 may. G'.G'ulom Toshkent shahrida tug'ildi.

1912. Shoirning otasi vafot qildi.

1916. Rus-tuzem maktabiga o'qishga kirdi.

1918. Shoirning onasi vafot qildi.

1919. Boshlang'ich maktabga o'qituvchi bo'lib ishga kirdi.

1923. Bolalar uyiga tarbiyachi bo'lib ishga o'tdi.

1923. Dastlabki she'ri “Go'zallik nimada?” nomi bilan bosilib chiqdi.

1925. “Kambag'al dehqon” gazetasiga kotiblik vazifasiga tayinlandi.

1930. Toshkent viloyati gazetasi “Sharq haqiqati”ga ishga o'tdi.

1934. Butunittifoq yozuvchilari I qurultoyiga delegat bo'lib qat-nashdi.

1931. “Dinamo” kitobi bosilib chiqdi. Shu yili “Jo'ra bo'za”, “Yigit” to'plamlari bosildi. 1932-yil “Kulgi hikoyalar” nashr etildi.

1932-40. “Netay”, “Tirilgan murda”, “Shum bola” qissalari bosilib chiqdi.

1940-50. “Mukofot”, “Tongotar qo'shig'i”, “Bari seniki” kabi bolalarga atalgan kitoblari nashr etildi.

1943. O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi qilib saylandi.

1946. Davlat mukofoti laureati bo'ldi.

¹⁹ Adabiyotimiz avtobiografiyasi. – T.: “Adabiyot va san'at”. 1973. 173-174-betlar.

1966. 10-iyulda vafot etdi.

1971-1978. O'n tomlik to'la asarlar to'plami bosilib chiqdi.

Yozuvchining qiyofasi ko'proq buyuk kishilar tomonidan unga berilgan baho doirasida yorqin namoyon bo'ladi. Shu sababli, Shoir haqida uning zamondoshlari, safdoshlari, shogirdlarining xotiralarini o'quvchilarga o'qib eshittirish har jihatdan muhimdir.

1. Islom Abdug'aniyevich Karimov:

Bu ulug' zotning Vatanga sadoqat, hayotga, insonga muhabbat tuyg'ulari bilan yo'g'rilgan betakror asarlari yangi nasllarning ham ma'naviy-ruhiy shakllanishiga, yoshlarimizning kamolotiga xizmat qiladi. O'zAS, 2003 16-may.

2. Hamid Olimjon:

G'.G'ulom har taraflama kamolotga erishgan ijodkordir. Uning tili sermazmun va ixcham. G'.G'ulom ham shoir, ham prozaik, ham lirik, ham yumorist. U rango-rang mavzularda asar yozadi. G'.G'ulomning har bir asarida bir yangilik bor. U hozir O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigidir.

3. Qozoq yozuvchisi, akademik Muxtor Avezov:

Uning ovozi muhabbat, qardoshlik va do'stlik shiori bo'lib baland ohangda yangradi.

4. Professor Naim Karimov:

Agar zamondoshlarining shoir haqidagi xotiralarini o'qisak, uning qomusiy bilim sohibi, serqirra iste'dod egasi, "Shum bola"ni ham, falsafiy mazmun bilan yo'g'rilgan she'rlarini ham "kotib"larga badihatan aytib yozdirgan shoir sifatidagi obrazi qarshimizda qad ko'taradi.

5. Professor Nuriddin Shukurov:

G'.G'ulomning individual poetik uslubini belgilovchi asosiy xususiyatlar-novatorlik va falsafiylik, operativlik va hozirjavoblik, g'oyaviy yetuklik va tarixiy konkretlik, milliylik bilan internatsionallikning ajib bir yo'sinda uyg'unligidan iboratdir.

6. Rus yozuvchisi Aleksandr Fadeev:

Shoir va akademik G'.G'ulom davr poeziyasining o'ziga xos va mislsiz hodisalaridan biridir. Eng latif lirikasidan oratoriyagacha (xor uchun yozilgan maxsus she'r) – uning diapazoni ana shunday. Uning she'rlari hamisha zo'r faxr va teran tuyg'ular bilan sug'orilgan. U tom ma'nosi bilan chinakam, buyuk shoir.

7. Professor Salohiddin Mamajonov:

U shoirlikni eng injiq va eng mushkul ish ekanligini ta'kidlab, she'rni insoniyat ma'naviy dunyosini o'rganuvchi, boyituvchi va go'zallashtiruvchi hamda insoniyat yovlariga qaqshatqich zarba beruvchi buyuk g'oyaviy qurol deb bildi.

8. Professor Ozod Sharafiddinov:

Shoir ijodidagi g'oyaviy va badiiy barkamollik – Sharq poeziyasi, xalq ijodi va jahon adabiyotidan oziqlangan.

9. Akademik Baxtiyor Nazarov:

Uning otashin insonparvar va vatanparvar nafasi o'tgan yuz yillikdan o'tib, mana yangi yuz yillikka ham xalqi, yurti bilan birga tozarib, yanada yasharib yetib keldi. Bu nodir nafas kelgusida ham ko'pdan-ko'p yuz yilliklar bilan yuzlashadi, demak, u boqiydir.

Ushbu fikrlar adib hayoti va ijodini idrok qilishda katta ahamiyatga ega.

Iloji boricha taniqli yozuvchilar, olimlarning shoirga bergan yuksak baholari adabiyot xonasi ko'rgazmalari orasidan munosib o'rin egalashi kerak.

Darslikda uning "Mening o'g'rigina bolam" voqeyi hikoyasi berilgan.

Mazkur hikoya paydo bo'lishi bilan og'izga tushib ketdi. Bu hikoyaning mashhurlik qozonganligi haqida professor Abduqodir Hayitmetov shunday yozadi: "G'afur G'ulomning so'nggi davr ijodidan mening eng sevib o'qiganim "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasi desam, xato bo'lmaydi. Unda insongarchilik g'oyasi sharoit taqozosi bilan o'g'irlik yo'liga kirgan yigit va rahmdil uy egasi timsollari sof o'zbekona tushuncha hamda uslub orqali yaxshi tasvirlab berilgan. Men bu hikoyani gazetada bosilib chiqqan kuni kechroq – uyquga yotish oldidan o'qiganman. O'qib bo'lgach, hayajonim ichimga sig'may, uxlashga ho-

zirlik ko'rayotgan barcha oila a'zolarimizni to'plab, uni o'zim o'qib bergan edim".

Hikoya juda samimiy, shirali tilda yozilgan. Uning sarlavhasini o'qishning o'zi darhol kishi e'tiborini tortadi. "O'g'rigina" so'zidagi "gina" qo'shimchasi o'zbek tilida erkalash, kichraytirish va samimiyat ma'nolarini anglatadi. Xo'sh, shunday ekan nega bu so'z "o'g'ri" so'ziga qo'shib ishlatilayotir. Hamma gap ana shu erda. Sarlavhani o'qigan kishi o'sha so'zga ajablanib qaraydi. O'zi o'g'ri bo'lsa, "Qora buvi" nega uni o'z bolasidek yaqin tutib gapiradi?

Gap shundaki, bu bola tom ma'nodagi o'g'ri emas. Uni zamona zayli shu ko'ysa solgan. Beshafqat hayot, tirikchilik ilinji o'g'irlik qilishga majbur qilgan. "Qora buvi" ana shu holni yaxshi anglaydi. Qolaversa, "Qora buvi" siymosida hayot so'qmoqlarini birma-bir bosib o'tgan, hayot achchiq-chuchuklarini totgan qalbi keng, jafokash o'zbek ayoli siymosi o'z ifodasini topgan. Bu ayolda millat mentaliteti o'zini namoyon qiladi. "Qora buvi" "o'g'rigina bola"ni xuddi mehmondek qabul qiladi. Hatto xayrlashganda ham "kelib tur" deya iltifot ko'rsatadi. Bu holat o'quvchida bir tomondan kulgu qo'zg'asa, bir tomondan achinish tuyg'ularini uyg'otadi.

"O'g'rigina bola" ham uyat, andishani biladi. O'zini tanitishni istamaydi, "juda ham yuzimni sidirib tashlaganim yo'q, andisham bor, uyalamam", deb choy ichish taklifini rad qiladi.

Hikoya voqea ishtirokchisi bo'lgan bola tilidan bayon qilingani uchun juda sodda va samimiy tarzda o'qiladi.

Hikoyada G.G'ulomning hayotni reallashdagi barcha mahorati bo'rtib turadi. Asar tilida voqealar bo'lib o'tgan davr bilan aloqador badiiy nutq, o'ziga xos leksika ko'zga tashlanib turadi. Shu sababli hikoya oxirida lug'at berilgan. Ammo lug'atda berilmagan, ammo hozirgi o'quvchiga tushunarli bo'lmagan so'zlar ham ko'plab uchraydi. O'qituvchi ushbu so'zlarni matn tarkibidan topib, lug'atga qo'shimchalar kiritishi zarur. Bular quyidagilar:

Tanob – katta ma'nosida. Tanob uzunlik o'lchov birligi, bir gazga teng. (Har gaz 1,20 m.)

Bozorikasod – o'tmas mol ma'nosida.

Sirach – yelim.

So'zan – igna.

Gorodovoy – soqchi.

Bundan tashqari, hikoya matnida anchagina maqollar, turli iboralar ishlatilganki, ularni albatta o'quvchilarga sharhlab berish lozim. Bular tubandagilar:

Ibora	Ma'nosi	Ishlatilishi sababi
Tiriklik toshdan qattiq	Hayot mashaqqatdan iborat	Hayotning qiyinchiligini ta'kidlash uchun
Tuyaning ko'ziday non anqoga shafig'	Non topish o'limdan badtar	Kambag'allik, qashshoqlikni ifodalash uchun
Kimning ham ko'zi uchib turibdi deysan	Kim ham istar edi	Qizlarga ishtiyoqmandlarning yo'qligini ifodalash uchun
Bir tovuqqa ham don kerak, ham suv kerak	Bitta insonga ham oziq-ovqat kerak	Tirikchilikning qiyinligini ko'rsatish uchun
Non topish uchun o'zimni o'tga, cho'qqa, Alining tig'iga uraman	Yashash uchun o'zini to'rt tomonga urmoq	Hayotning nihoyatda mashaqqatli ekanini ko'rsatish uchun
Zamon-zamon o'sha iligi to'qlarniki	Zamon boylarniki	Kambag'alning ahvoli chatoqligini ko'rsatish uchun
Turib yeganga turum-tog' chidamas.	Yotib yeganga tog' chidamas.	Bekorchilikning yomon ekanini anglatish uchun.

Bu iboralar orasida "Alining tig'i" birikmasiga alohida sharh berish kerak. Ali choriyorlarning biri. Mumtoz adabiyot va folklorda "Alining dulduli (oti)" "Alining Zulfiqori (qilichi)" kabi iboralar ko'p uchrashini bu ot va qilich mo'jizakor ekanini qisqacha aytib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Oxirida qissadan hissa chiqarib, hikoya g'oyasini ifodalovchi bitta maqol topishni o'quvchilarga havola qilishi zarur. Uni "Qora buvi"ning samimiy gaplaridan keltirib chiqarish lozim. Chunki uning yaxshi muomalasi yomon niyatda kelgan "O'g'rigina bola"ni shashtidan qaytaradi. Bunga xalq orasida tarqalgan quyidagi maqol xulosa bo'la oladi:

Yaxshi so'z bilan ilon iniga kiradi,

Yomon so'z bilan pichoq qinidan chiqadi.

O'quvchilar ushbu g'oya orqali hikoyadan kattagina ma'naviy tarbiya olishadi. Hozirgi davrning, tinch-faroyon hayotning qadriga yetishni tushunib yetadilar.

Mazkur g'oyani hozirgi zamonga bog'lab tushuntirish muallimning bilimiga, mahoratiga bog'liqdir. Agar o'qituvchi o'z maqsadiga erisha olsa, o'quvchilar G'.G'ulomning boshqa nasriy asarlarini ham qiziqib o'qishga kirishadilar.

3-QISM

O'QUVCHILARDA IFODALI O'QISH MALAKASINI SHAKLLANTIRISH

Bolalarni ifodali o'qishga o'rgatish

Bolalarni she'rni ifodali o'qishga o'rgatish o'qituvchining eng muhim vazifalaridan biridir.

Ifodali o'qish jarayonida she'rdagi hissiy tuyg'u o'quvchi qalbiga ko'chadi, uning talaffuzi sayqallashadi, nutqi o'sadi, poeziyadagi nafosatni ilg'ab oladi.

"Ifodali o'qish badiiy so'z san'atining dastlabki bosqichi bo'lib, o'ziga xos muayyan shart va qoidalarga ega. Ifodali o'qishning asosiy shartlari adabiy materialdagi: a) tinish belgilariga rioya qilish, b) mantiqqa putur yetkazmaslik va v) o'sha materialni dona-dona va burro-burro, tushunarli qilib o'qib berishdan iborat"²⁰.

Har qanday she'rni ifodali o'qish uchun, avvalo, uning mazmun-mohiyatini anglab olish zarur.

"She'riyatga xos ifodalarning teran va hayajonli, ma'noning quyuq bo'lishi to'la anglangandagina she'rning mutolaasi o'quvchiga zavq bag'ishlaydi, uning xotirasini mustahkamlab, nutq boyligini oshiradi, aqlini peshlaydi"²¹.

V sinf darsligida ko'pgina she'rlar berilgan bo'lib, ularni ifodali o'qish malakasini o'quvchilarga o'rgatish uchun yuqoridagi qoidalarni mezon qilib olish zarur. Masalan, Mirtemirning "Bulut" she'ri V sinf o'quvchilari iqtidoriga juda mos tanlangan. Dastlab, she'rning mazmunini o'quvchilar to'la anglab olishlari kerak bo'ladi. She'r bahor manzaralarini, uning go'zalligini, bulut va yomg'irning elga qut-baraka olib kelishini maroq bilan tasvirlaydi.

O'qituvchi she'r mazmunini, asosiy g'oyani o'quvchilarga tushuntirishdan oldin albatta she'rdagi tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlar lug'atini tuzib, osib qo'yishi kerak. Bu so'zlar quyidagilardan iborat

20 Inomxo'jayev S. Badiiy o'qish asoslari. – T.: "O'qituvchi", 1973. – B.14.

21 Matjon S. She'riy asar tahlili // Til va adabiyot ta'limi. 1995. №2. – B.13.

bo'lishi mumkin: **pag'a** – bo'lak-bo'lak, parcha; qut-baraka; **oqquv** – oq qush; **barqut** – yumshoq; **ro'yo** – yo'q narsa.

Matndagi ma'no, barcha so'zlar o'quvchilarga to'la ayon bo'lgandan so'ng she'r-misralaridagi tinish belgilarining vazifasi tushuntiriladi.

She'rdagi vergul va chiziqchalardan keyin, albatta, nutqda muayyan to'xtalish bo'lishi kerak. Bundan tashqari, tinish belgilari bilan aloqador mantiqiy urg'ular yuzaga keladi. Ularni o'qituvchi ilgaridan aniqlab kelishi zarur. "Bulut" she'rini shu talab nuqtayi nazaridan ifodali o'qishga quyidagicha tayyorlash mumkin:

BULUT

Ko'k yuzida pag'a bulut – **oq bulut**,
Oq bulutdan sut yog'armi yoki **qut**?
Pag'a bulut – yashil ko'klam elchisi,
Havolarda **yomg'ir isi, sel isi...**

Ko'k yuzida **dam** qaldiroq, **dam** sukut,
Yog'may **o'tma**, pag'a bulut – **oq bulut**!
Yog'ib o'tsang, tizza bo'yi **o't bo'lur**,
O't bo'lur, ham **sut bo'lur**, ham **qut bo'lur**.

Ko'k yuzida pag'a bulut – **oq-bulut...**
Bir qarasang – **osmon** to'la oqquvlar.
Bir qarasang – **baland** qorli cho'qqilar,
Bir qarasang – ko'z ilg'amas **oq barqut**.

Ko'k yuzida **yorug'**, oydin bir **ro'yo...**
Usta rassom chizmish **ajib manzara**
Tepa-tepa paxta – **beg'ubor, sara**,
Kuzgi xirmonlarning **aksi bu go'yo...**

She'r kamida ikki marta o'qituvchi tomonidan o'qib eshittirilishi zarur. Keyin o'quvchilar uni bemalol ifodali tarzda o'qishlari mumkin.

She'rni ifodali o'qish bilan birga uning tarkibidagi ifodaviy vositalarga ham e'tibor qaratish lozim.

Badiiy ifoda vositalarini jadvalga solsa, quyidagicha bo'ladi:

She'rdagi badiiy vosita	Nomi	Vazifasi
Pag'a bulut – oq bulut	Sifatlash	Bulut haqida yorqin tasavvur uyg'otish
Yashil ko'klam	Sifatlash	Bahor manzarasini ifodalash
Osmon to'la oqqular	Jonlantirish	Bulutlarni jonli ifodaga tortish
Qorli cho'qqilar	O'xshatish	Bulutlar manzarasini ifodalash
Oq barqut	Sifatlash	Bulutlarning yumshoqligiga ishora qilish
Beg'ubor sara (paxta)	Sifatlash	Paxta sifatini anglatish.

Ushbu badiiy ifodalardan tashqari she'riy badiiy nutqda boshqa ma'nodor so'zlar ham bor. Masalan, "Oq bulutdan sut yog'armi yoki qut?" misrasida shoir bahorgi yomg'irning qut-baraka olib kelishiga ishora qiladi. Chunki yomg'ir yog'sa o't-o'lan ko'karadi, uni to'yib yegan jonivor sut beradi. Sut esa qut-baraka degani. "Usta rassom chizmish ajib manzara" misrasida ham shoir yomg'ir yog'ishi oldidan osmonda paydo bo'ladigan kamalak rangiga ishora qiladi. Chizmoq so'zini chizmish shaklida berilishi poetik nutqning o'ziga xos bir usuli ekanini ham sharhlab o'tish zarur. She'r nihoyasidagi "paxta xirmon"lari haqida shoir qilgan orzu ham bahorning kelishi bilan aloqadordir. Chunki yomg'ir, sel obi hayot elchilaridir. Suv mo'l bo'lsa barcha ekin-tikinlar mo'l hosil berishadi. Bu esa farovon hayot demakdir.

Shuningdek, she'r misralaridagi sintaktik va fonetik vositalarni ham o'quvchilarga tushuntirib o'tish zarur. She'rning ikkinchi bandining oxirgi misrasida alliteratsiya (tovush uyg'unligi) usuli qo'llanilgan: "O't bo'lur, ham sut bo'lur, ham qut bo'lur". Misradagi tovushlar moslashuvi uning ohangdor va jarangdor o'qilishini ta'minlagan. She'rning uchinchi bandidagi 2, 3, 4-misralarda sintaktik vosita – anafora qo'llanilgan. "Bir qarasang" birikmasining uch marta takrorlanishi ta'kidlash ohangini kuchaytirish va bo'rttirishda asosiy rol o'ynaydi. She'r voqealarini eshituvchiga to'laqonli yetib borishini ta'minlaydi.

O'quvchilar she'rda qo'llanilgan ushbu vositalarni anglab yetsalar, ular poeziyaning o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishib borishadi.

lari tobora yuksalib boradi.

4-OISM

Dramatik asarlarni o'rgatish usullari

Adabiy ta'limda dramatik asarlarni o'rganish ancha muhim o'rinda tutadi. Dramatik asarni o'rganish maktab o'quv dasturida 8-sinfdan boshlanadi. Tahlil kutilganidek bo'lishi uchun o'quvchilarda bu tur asarlarni o'qish ko'nikmasini shakllantirish zarur. Chunki dramatik asarlarda qahramonlar xarakteristikasi berilmasligi bois ham uning tabiatini ilg'ash mushkul. Dramatik asarlar tahlili ham xuddi epik va lirik asarlarni tahlil qilishga juda ham o'xshab ketadi. Ammo dramatik turdagi asarlar faqat o'qish uchun emas, balki asosan ko'rsatish, namoyish qilish uchun ham yozilganligi sabab teatrga xos xususiyatlar hisobga olinishi, ya'ni yaratilayotgan vaqtidayoq asarning spektaklga aylanishi ko'zda tutilishi joiz. Dramatik asarlar tahlili o'zgacha sinchkovlikni talab qiladi. Aslida, so'z va teatrsan'atkorning omuxtasini bo'lgan dramani o'qish, idrok etish hamda tahlil uchun muayyan darajada qo'shimcha zo'riqish lozim bo'ladi.

Qahramonlar va ularning tuyg'ulari, insoniy sifatлари to'g'risida muallifning xarakteristikasi bo'lmagan sharoitda asar qahramonlari holati, ruhiyati va shaxsiyati borasida fikr yuritish, muayyan xulosalar chiqarish badiiy tahlil subyektlari bo'lmish o'qituvchi va o'quvchidan aqliy zo'riqishni talab qiladi.

O'quvchilarni dramatik asar tahliliga jalb qilishda o'qituvchi bir qator qiyinchiliklarga duch keladi. Avvalo, dramatik asarning o'qilishi boshqa turdagi asarlardan tubdan farq qiladi va boladan muayyan nazariy tayyorgarlik talab qiladi. Shu tufayli tayyorgarlik ko'rish uchun ko'pincha dramatik asarni o'qimay qo'yadilar. Bordi-yu, sahna asari o'qilgan taqdirda ham uni idrok etish, zamiridagi badiiy ma'noni topish oson kechmaydi. Chunki drama asarida muallif mutlaqo ishtirok qilmaydi, uning pozitsiyasi biror yo'l bilan bayon qilinmaydi va asarda ro'y berayotgan to'qnashuvlarni ma'naviy jihatdan baholash hamda undan estetik xulosa chiqarish kitobxonning hayot tajribasiga, ma'naviy sifatlariga bog'liq bo'lib qoladi. Murakkablik yana shundaki, dramatik asarlarda voqea ham, tuyg'u ham yetakchi bo'lmaydi. Bu xil asarlarda xarakter asosiy o'rin tutadi.

Adabiyotshunos olimlarimizning fikriga ko'ra, dramatik asarni xarakterlar to'qnashuvi tutib turadi. Chunki dramatik turdagi asarlar qanday janrda bo'lishidan qat'iy nazar dramatism ruhiy xavotir shiddati tasviriga qurilgan bo'ladi²².

Dramatik asarda qahramon uchun hayot-mamot ahamiyatiga ega qandaydir bir narsaning qo'ldan berilishi yoki amalga oshmay qo'lishi xavfi tasvirlangan bo'lishi kerak. Ana shundagina dramatik asar yuzaga chiqadi. Tahlilda ushbu nazariy talabga alohida ahamiyat berish lozim bo'ladi. Yana bir muhim jihat shundaki, dramatik asarni tahlil qilish boshqa-yu, shu asosda o'ynalgan spektaklni tahlil qilish tamomila boshqa narsadir.

Chunki so'z san'ati namunasi bo'lmish drama spektaklga aylangach, teatr san'ati namunasiga evriladi va o'sha san'atning qoidalariga muvofiq yashay boshlaydi. Rejessura dekoratsiya, aktyorlar mahorati drama muallifining badiiy maqsadini tamomila o'zgartirib yuborishi mumkin. Chunonchi, B.Yo'ldoshev rejissorligida qo'yilgan "Otello" spektakli Afzal Rafiqov o'ynagan Yago roli qahramonga va spektaklning o'zi yovuz ruhning iztiroblari va qiynalishlari namoyishga aylanib ketgan. Ijro mobaynida drama matnidagi barcha nozikliklar yo'qolib ketishi mumkin bo'lganidek, kuchli ijro tufayli o'rtamiyona bir asar tomoshabinda yuksak taassurot qoldirilishi mumkin.

Agar dramatik turdagi asarlarning shu jihatlarini hisobga olgan holda ish yuritilsa, juda ta'sirchan tahlil qilishga erishiladi. O'quvchilar drama matni bilan tanishishdan oldin bunday asarlarga xos sahna, parda, ko'rinish, monolog, dialog, prolog, epilog, luqma, remarka singari sahnaviy tushunchalar to'g'risida to'liq nazariy ma'lumotga ega bo'lishi kerak.

Negaki, shu xildagi ma'lumotlarsiz sahna asarini tushunish ham, tahlil qilish ham qiyin bo'ladi²³.

Dramatik asar badiiy hodisa hayot hodisasiga aylangan, kishining sezgi a'zolariga ta'sir qilish qudratiga ega bo'lgan yagona adabiy turdir. Dramada qahramonlar xakteri voqelik tarzida, tomoshabinning ko'z o'ngida namoyon bo'ladi va kuchli ta'sir o'tkazadi. Shuning uchun ham drama asarlarini tahlil qilish anchagina murakkab yummushdir. Kuchli insoniy xarakterlar, to'qnashuvlaridan o't chaqnay-

²² To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. – B.168.

²³ To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. – B.168.

digan hayotiy ziddiyatlarning asosini topish, asar qahramonlari ruhiy to'lg'oqlari bilan tanishtirish orqali kishidan insonni pozitsiya va ma'naviy qadriyatlar tizimi shakllantiriladi.

Dramatik asarlarni tahlil qilish o'quvchidan ma'lum darajada hayotiy va madaniy daraja, tajriba, intellektual tayyorgarlik talab qilinadi. Dramatik asarlar bilan yoshlar qancha erta tanishsa va ulardan tezroq bahramand bo'lishsa, ularning ma'naviyatini shakllantirish jarayoni shunchalik muvaffaqiyat bilan boradi.

Metodist olimlarimizdan B. To'xliyevning ta'kidlashicha, ayrim metodistlar g'oyat murakkab tuyg'ular, chigal insoniy taqdirlar tasvirlangan "Shoh Edip", "Qirol Lir", "Mirzo Ulug'bek", "Abulfayzxon", "Temir xotin" kabi asarlarni idrok etish mushkul, ularda badiiy ma'noni, odamzodning ulkan dardlarini, iztiroblarini tushunish qiyin deyishadi. Bu "xildagi mehribonlik" odamni nafaqat aqlan, balki ma'nadan tanbal qilib qo'yadi. Agar odam o'z vaqtida hissiy tarbiya ko'rmasa, tuyg'ulari kamol toptirilmasa, 14 yoshida ham, 44 yoshida ham insoniy tuyg'ulardan, murakkab kechinmalardan bexabar yashab o'taverishi mumkin. Fikr qilish, his etish, tuyush ham boshqa har qanday insoniy ko'nikma singari yoshlikdan shakllantiriladi.

O'rta umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitishning eng murakkab masalalaridan biri dramatik turga mansub bo'lgan fojia asarining tahlili masalasidir. Chunki fojia ustida ishlashda boshqa janr turlariga mansub asarlarni o'rganishda qo'llaniladigan qahramonlar obraziga xarakteristika, shakl va mazmun birligi, voqealarning hayot bilan mushtarakligi, badiylikning o'ziga xosligi kabi masalalardan tashqari fojia janrining o'ziga xos xususiyatlariga alohida e'tibor beriladi. Tajriba «Mirzo Ulug'bek» fojiasini quyidagi reja asosida o'rganish yaxshi samara berishini ko'rsatdi:

- 1) kirish mashg'uloti;
- 2) fojia matni ustida ishlash;
- 3) fojining asosiy konflikti va kompozitsiyasini o'rganish;
- 4) fojiadagi Mirzo Ulug'bek obrazini tahlil qilish;
- 5) asardagi boshqa obrazlarni tahlil qilish;
- 6) yakunlovchi mashg'ulot.

Fojia qahramonlari boshidan kechirgan voqealarni kitobxon yoki tomoshabin ularning so'zidan, xatti-harakatidan bilib oladi. Demak, dramaturg o'z qahramonlarining hayoti to'g'risida hikoya qilmaydi, balki ularni harakatda ko'rsatadi. Dramatik asarda tasvirlangan har

bir harakat qahramonlarning konfliktidagi ishtiroki, hayotiy voqealarga munosabati, monologi, o'zaro so'zlashuvi va munosabati ularning xarakterini ochishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Dramatik asar qahramonlari o'zlarini harakatda namoyish qiladilar, ularning nutqi o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Bu nutq nasriy asar qahramonlari nutqiga nisbatan yanada dinamik bo'lib, ularning xatti-harakati bilan bevosita bog'lanishda bo'ladi. Odatda, dramaturg obrazlarning xarakterini ochish uchun zarur bo'lgan voqea-hodisalarni ifodalaydi.

«Mirzo Ulug'bek» asarida ham voqealarning keskin tus olishi asos qilib olinadi. Fojiada Mirzo Ulug'bek bilan qora kuchlar o'rtasidagi qarama-qarshilik keng tasvirlanadi. O'qituvchi bu haqda ma'lumot bergach, fojining xarakterli parchalari sinfda ifodali o'qiladi.

Shayxzoda «Mirzo Ulug'bek» fojiasining voqealar tasvirida tarixiy shaxslar, to'qima obrazlardan mohirlik bilan foydalangan.

O'qituvchi o'zining kirish so'zi davomida obrazlar aks ettirilgan jadvallarni namoyish qiladi. O'quvchilarga asardagi ishtirok etuvchilarni diqqat bilan kuzatib chiqish vazifasini topshiradi. Keyin ularning fojiadagi mavqelari haqida tushuncha beradi.

«Mirzo Ulug'bek» fojiasini o'rganish jarayonida asosiy e'tibor so'z ko'rsatmaliligi, ya'ni matnni badiiy-ifodali o'qishga qaratiladi, badiiy so'z ustalari ijro etgan monolog va dialoglar texnik vositalar orqali eshittiriladi.

Odatda, o'qituvchining kirish suhbatidan keyin asar matni ustida ishlashga o'tiladi. Ammo matn ustida ishlash uni boshdan-oyoq sinfda o'qib chiqish degan so'z emas, albatta. Bunda fojiadagi ayrim ko'rinishlar tanlab olinadi va rollarga bo'lib o'qishga hozirlik ko'riladi. Ifodali o'qish o'quvchining asar mazmunini to'la tushunib olishiga, sinfda o'qish jarayonida uning ham estetik, ham g'oyaviy jihatlarini chuqur anglab olishiga yordam beradi.

Sinfda «Mirzo Ulug'bek» fojiasi mazmunini o'zlashtirish yuzasidan olib boriladigan ishda o'quvchilarning asar mazmunini tushunib o'qishlariga, ifodali o'qish jarayonida asosiy obrazlarning xulq-atvoriga taalluqli bo'lgan o'rinlar yozib borilishiga e'tibor beriladi. Ishni bu xilda tashkil etish o'quvchilar faoliyatini oshiradi, mashg'ulotning qiziqarli o'tishini ta'minlaydi. Fojia asarini tushunib o'qish va uni to'g'ri tahlil etish orqali o'quvchilarda bu janrga nisbatan kuchli qiziqish uyg'onadi. Buning uchun o'quvchilarning fojia janriga xos xususiyatlarni idrok qilishlariga e'tibor beriladi.

Fojiani o'qish jarayonida o'quvchilar dialog, monolog, remarkalar bilan tanishadilar, unda ifodalangan voqealarni, ishtirok etuvchilarning xulq-atvori, xatti-harakatini, o'zaro munosabatlarini konflikt va yechimdan bilib oladilar.

Dramatik asarlarni o'rganishda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash asarning o'quvchilar ongida abadiy muhrlanib qolishiga, asardagi qahramonlar xarakteridagi ijobiy xislatlari o'zlariga singdirib olishlarida yaqindan ko'mak beradi. Maqsud Shayxzodaning «Mirzo Ulug'bek» dramasi o'rganganda bir qancha interfaol metodlarni qo'llash mumkin. Shayxzoda bu asarida bosh qahramon Ulug'bek bilan qora kuchlar o'rtasidagi murosasiz kurash, bu kurashda Ulug'bekning fojiali qurbon bo'lishini tasvir etadi.

Asarda Ulug'bekning olimlik va shohlik xislatlari aks ettiriladi. Uning olimlik faoliyati shogirdi Ali Qushchi bilan qilgan suhbatlari, oy tutilishi xususida qilgan bahslari tabiat hodisalarining sirini ochish haqidagi fikr yuritishlarida ochiladi. Uning shohlik faoliyati Toshkentga hujum qilgan qipchoqlarga qarshi kurash orqali ko'rsatiladi. Bu asarni o'tishda uning bi-ror pardasini o'qish, qolgan qismini uyda o'qishga berish, qolgan soatlarda asarni tahlil etish, tahlil jarayonida Ulug'bek obraziga batafsil to'xtalish, bosh qahramonlarga ham tavsif berish mumkin. Shu bilan birga, tarixiylik birinchi o'rinda turmog'i lozim.

Maqsud Shayxzodaning oq she'r shaklida yozilgan bu tragediyasi 1961-yilda yaratilgan bo'lib, yozuvchi ijodining cho'qqisi hisoblanadi. Unda o'rta asrning buyuk olimi, davlat boshlig'i Mirzo Ulug'bek hayotining so'nggi ikki yili tasvirlanganligiga alohida to'xtalinadi.

Asarning asosiy mazmun yo'nalishi ilg'or kuchlar bilan jaholatning o'zaro kurashidan iboratdir. Yozuvchi shu kurash jarayonini tasvirlar ekan, Mirzo Ulug'bek fojiasini ijtimoiy tuzumdan va shu tuzumdagi ayovsiz ziddiyatlardan izlaydi.

Maqsud Shayxzoda bu asarida ijtimoiy voqelikni ham tarixchi, ham ijodkor sifatida aniq yoritib bera olganligini, asarda Ulug'bek, Abdullatif, Gavharshodbegim, Ali Ahror, Said Obid, Abdurazzoq Samarqandiy, Qozi Miskin kabi tarixiy shaxslardan tashqari voqelikni, Ulug'bek obrazini har taraflama ochib berish maqsadida yozuvchi tomonidan ijod qilingan Feruza, Ota Murod, Berdiyor, Piri Zindoniy, Bobo Kayfiy, Ko'r Qalandar singari to'qima obrazlar ham mavjudligi haqida keng ma'lumotlar o'qituvchi tomonidan beriladi.

Yozuvchining tildan mohirlik bilan foydalana bilishi, qalamga olinayotgan davr tili xususiyatlarini iloji boricha asar ruhiga singdira olishi asarning qimmatiga qimmat qo'shadi. O'qituvchi mavzuni tushuntirish jarayonida tarixning asar bilan bog'liq faktlarini ham o'quvchilarga yetkazishi lozim bo'ladi. Tarixdan ma'lumki, temuriylar sulolasining eng mashhur vakillaridan biri bo'lgan Mirzo Ulug'bek (asl ismi Muhammad Tarag'ay)ning taqdiri hozirgi kungacha kishilarni hayratga solib kelyapti. Darhaqiqat, tadbirkor davlat rahbari, adolatli shoh, ilm-fanda yuksak cho'qqilarni egallagan inson, mislsiz ilmiy qobiliyat Mirzo Ulug'bek shaxsida mujassamlanishi hayratlanarli hol. Shundan bo'lsa kerak, hazrat Navoiy sultonlar orasida uni ulkan daho sifatida baholaydi. Umumman, temuriyzodalar orasida bunday aql sohiblari ko'p uchraydi (Zahiriddin Muhammad Bobur, Husayn Boyqaro kabi). Alisher Navoiy o'zining "Majolis un-nafois" asarining yettinchi majlisini temuriylarga mansub shoirlar, sakkinchi majlisini yana bir temuriyzoda – Sulton Husayn Boyqaroga bag'ishlagani misollar orqali aytib beriladi.

Mirzo Ulug'bek – Amir Temurning suyuqli nabirasi, ya'ni to'rtinchi o'g'li Shohrux Mirzoning farzandi, u bobosi Temurning barcha yurishlarida ishtirok etgan. Buyuk olim va hukmdor haqida tarixiy ma'lumotlarni ko'plab keltirish mumkin. Bu ishni tarixchi olimlarimizga qo'yaylik-da, suhbatimizni yuqorida siz tanishib chiqqan drama voqealari xususida davom ettiraylik. Ushbu sahna mazmunidan ma'lum bo'lganidek, ulug' adibimiz Maqsud Shayxzoda mazkur asarni yaratishga jiddiy tayyorgarlik ko'rgani, dramani yozishda behisob ilmiy-tarixiy manbalarga tayangani ko'rinib turibdi. Adib asarda Ulug'bek yashagan davrni, u hukmronlik qilgan saroy muhitini ko'z o'ngimizda yaqqol gavdalandirgan. Mirzo Ulug'bek hayotida ko'p voqealar yuz bergan. U oliy hukmdor, buyuk olim sifatida ko'p narsalarni o'z boshidan kechirgan. Bularni besh pardali tarixiy fojiga sig'dirib bo'lmashligini bilgan M.Shayxzoda ushbu asarga asosan ikki yo'nalishdagi voqealarni, ya'ni saroy ixtiloflari va buyuk olim olib borgan ilmiy izlanishlarni yoritishga jazm qilgan. Asar bilan tanishganingizda sizda ikki xil tuyg'u paydo bo'lgani aniq. Adib Mirzo Ulug'bekni bir tomondan, qattiqqo'l, butun Xurosonni o'z qo'lida saqlab qolish uchun har qanday chorani ko'rishga tayyor hukmdor sifatida, ikkinchi tomondan, ilm-fanning jonkuyari, jahonshumul kashfiyotlar qilgan olim, fan ahlini jonidan ortiq ko'radigan (masalan, Ziji Ko'ragoniyning so'zboshisida shogirdi Ali Qushchini "farzandi arjumand" – aziz farzandim deb ataydi), biroq saroydagi fisq-fasod, ig'vo ishlar oldida ojiz bir inson qabilida tasvirlaydi. O'quvchi hukmdor Ulug'bekning zulmu zo'ravonligini inkor qilmagan holda, olim va fozil, ma'ri-

fatparvar Ulug'bekka achinadi, unga ixlosi ortadi. Haqiqatan ham, Ulug'bekni tarix oldidagi katta xizmati uning hukmdorlik faoliyatidan ko'ra ilm-fanni, ma'rifat va madaniyatni rivojlantirishidadir. Shu ma'noda Ulug'bekning fan, madaniyat ravnaqi yo'lidagi xizmatlari uning zulm-zo'ravonlik faoliyatidan ustun ekanligiga kishida shubha qolmaydi. Maqsud Shayxzoda Ulug'bek shaxsidagi shu xususiyatlarni teran anglagan holda o'quvchi diqqatini ko'proq uning ma'rifatparvarlik faoliyatiga qaratadi. Buni dramadagi Mirzo Ulug'bek so'zlaridan ham anglasa bo'ladi:

*Ma'rifatning dargohiga qo'ydim ixlosim,
Og'ir bo'ldi qismat menga ortgan vazifa.
Men, sultonlar o'rtasida bo'ldim donishmand,
Donishmandlar tepasida sulton sanalдим.
Ma'rifatni hukumatga qilib rahnamo,
Bu o'lkaning yerida ham yulduzlar yoqdim²⁴.*

Agar Ulug'bekning "ma'rifatni hukumatga qilib rahnamo, Bu o'lkaning erida ham yulduzlar yoqdim", degan so'zlariga e'tibor beradigan bo'lsak, uning davlatchilik faoliyati ma'rifatchilik asosiga qurilganiga amin bo'lamiz.

Dramada Ulug'bek qiyofasi ko'proq asardagi boshqa obrazlar orqali ochilgan, masalan, Ali Qushchi, Sakkokiy, Shayxulislom Burhoniddin, Chin, Hind, Farang, Misr, Rus elchilari bilan bo'lgan muloqotda ilm-fan homiysi, buyuk olim, ma'rifat fidoyisi kabi xislatlari namoyon bo'lsa, Abdullatif Mirzo, uning mahrami Abbos, Qozi Miskin kabi saltanat dushmanlari, ig'volarga nisbatan bo'lgan munosabatida mutaassiblikka qarshi ashaddiy kurashgan inson sifatidagi xarakteri ochilganligi tushuntirib beriladi.

Mirzo Ulug'bek hukmdor, katta saltanat egasi bo'lganiga qaramay, avvalo, insoniy fazilatlaridan begona bo'lmagan, o'z farzandiga mehribon ota. Shundan bo'lsa kerak, saltanat, ilm-fan ishlari bilan mashg'ul bo'lib, o'z o'g'lini unga dushman sifatida qayrab, uni avval taxtidan, so'ng hayotdan mahrum qilish uchun amalga oshirilgan fitnalardan bexabar bo'lib g'aflatda qoladi. O'g'li Abdullatif otasiga qarshi isyon ko'taradi va uning buyrug'i bilan Ulug'bek qatl ettiriladi. Shu o'rinda marhum shoirimiz Muhammad Yusufning Ulug'bek tilidan aytgan quyidagi so'zlari asl haqiqat sifatida jaranglaydi:

²⁴ Normatov U. Yangi o'zbek adabiyoti. – Toshkent, 2007. B. 122.

Yulduzlarda ekan nigohim,
Bilmadim ne edi gunohim?!
Men dardimni kimga aytaman?!

Qancha g'amga botmagan edim,
Qancha og'u yutmagan edim...
O'z bolamdan kutmagan edim,
Men dardimni kimga aytaman.


O'qituvchi quyidagi fikrlarni o'quvchilar ongiga to'liq yetkaza bilishi lozim. Ulug'bekning haqiqiy insonparvar sifatidagi qiyofasi uning taxtdan iste'fc berishi sahnasida yorqin ifodalangan. U dushman qo'shini bilan kurashda ahvoli tang bo'lgach, o'z jonini qutqarish uchun emas, balki mamlakat fuqarosining tinchligini o'ylab, Abdullatif odamlari oldiga quyidagi shartlarga ko'nishsagina taxtdan voz kechishini e'lon qiladi: avvalo, mamlakatda fitnayu fasod darhol tugatilishi, qo'ni-qo'shni o'lkalarga bosqinchilik qilib, temuriylar nasliga qarg'ish va la'nat keltirmaslik, o'z xizmatidagi arboblardan qasos olmaslik, haramidagi ahli ayolning iffati va izzatiga g'ubor cho'ktirmaslik, madrasa va rasadxonalarga zavol yetkazmaslik, kutubxona va kitoblarni omon saqlashiga qasam ichishlarini talab qiladi. Adib tasvirida tarixiy haqiqat va uning badiiy ifodasi juda ishonarli chiqqan. Ulug'bek davrida Amir Temur shakllantirgan juda kuchli davlat parchalanib ketdi. Temuriyzodalar bobolari qoldirgan vasiyatlarga amal qilmadilar. Toj-taxt talashishlar oqibatida mamlakat inqirozga yuz tutdi. Bu holat Ulug'bekning bobosi Amir Temur qabri tepasida aytgan so'zlarida yaqqol ifodalangan:

Shu qirq yillik andishaga alamli yakun,
Ketib qoldi zamonadan diyonat, rostlik.
Mudhish bir jar yoqasida turmish mamlakat,
Zulmatli tun qo'nayotir yurtning ufqiga.
Bobo Temur, omonating saqlayolmadik,
Avlodlaring chiqib qoldi g'oyat noqobil.
Bobo Temur, tirigingda o'zing va so'zing
Ulkanlikda sig'mas edi shu er yuziga.
Endi nega maydalandi Temur urug'i,

Endi nega razillashdi hokimlar ruhi?!
Endi nega mirzolarning ko'zlari ojiz,
Qulog'i kar, idroki bo'sh, iroda kuchsiz?!
Bu kulfatli zamonada bergin maslahat²⁵...

Fojia Mirzo Ulug'bekning o'limi bilan tugaydi, biroq o'quvchi yoki tomoshabin bu manzaradan tushkunlikka tushmaydi, aksincha, buyuk olim ishlarining davom etishiga ishonadi, Abdullatif kabi padarkush g'alamislarning umri qisqa ekanligiga iymon keltiradi.

Dramadagi Mirzo Ulug'bek xarakterini yanada yaqqolroq ko'rish uchun klaster metodidan foydalanish yaxshi natija beradi:



²⁵ М.Шайхзода. Танланган асарлар. — Тошкент. Адабиёт ва санъат, 1989. — Б. 235.

Dramada adibning sahna asari yaratish bobidagi mahorati tufayli Ulug'bek yashagan davr, kishilar hayoti aniq, jonli, jozibador, eng muhimi, ishonarli chiqqan. Bu asardagi har bir so'zga, manzaraga, sahna jihozlariga ishonasiz, uni qalbdan his etasiz, go'yo o'zingizni shu voqealar ichida yurgandek sezasiz. Shu ma'noda "Mirzo Ulug'bek" dramasini Vatanimiz tarixining eng hasratli davridan hikoya qiluvchi mukammal sahna asari sifatida har qancha o'qib o'rgansak arziydi. Ushbu sahna durdonasining hali-hanuz sahnadan tushmay kelayotgani, uning asosida yaratilgan "Ulug'bek yulduzi" kinofilmi (rejissor Latif Fayziyev)ning Vatanimiz va xorij ekranlarida qayta-qayta namoyish etilayotganligi fikrimizning isbotidir.

"Mirzo Ulug'bek" dramasini o'rganishda interfaol usullarning ahamiyati juda katta. Ular o'qituvchining mohiyatini to'la anglashga, fikrlashga, mustaqil mushohada qilishga yordam beradi.

VIII sinf o'quvchilarining asar zaminidagi ziddiyat va uning fojiali hal qilinishi, asar qahramonlarining xarakterli xususiyatlari haqidagi bilimlari savol va topshiriqlar asosida aniqlanadi. Masalan, Mirzo Ulug'bek obrazini tahlil qilish jarayonida o'quvchilar shoh va olimning odilligi, ulug'vorligi, adolatparvarligi, jabr tortganlarga rahmdilligi o'zlariga kuchli ta'sir etganini, bu fazilatlarining chin insoniy axloq belgilari ekanini yoritadilar. O'quvchilar Abdullatifning makkorligi, toj-taxtga hirs qo'ygan va bu yo'lda otasining qotilga aylanganligi, yovuz niyatli ekanligi ularda nafrat uyg'otganini so'zlaydilar.

Biz fojia asari va undagi obrazlarning o'quvchilarga kuchli ta'sir etishini darslar davomida, faqat og'zaki suhbatda emas, yozma ishlar o'tkazish bilan ham aniqlanadi. «Mutafakkir olim va adolatli shoh», «Mirzo Ulug'bek» fojiasidagi Ulug'bek obraziga tavsif», «Maqsud Shayxzoda asarlarini sevib o'qiyman», «Mirzo Ulug'bek» asaridagi men sevgan qahramon» mavzularida o'tkazgan yozma ishlar (insho) ham «Mirzo Ulug'bek» asari va undagi qahramonlar o'quvchilarga jiddiy ta'sir etadi. Biz tavsiya qilgan usullar maktab hayotiga tatbiq etilsa, ular o'quvchilarda badiiy adabiyotga, fojia janriga muhabbat, uning o'ziga xos xususiyatlarini bilishga qiziqish tuyg'usini o'stirishi, ta'lim-tarbiya ishiga ijobiy ta'sir etishi shubhasizdir.

Ayniqsa, dramatik asarlarni o'rganishda "rolli o'yin" metodining ahamiyati katta.

Rolli o'yin metodi o'quvchilarga "begananing oyoq kiyimida yurib ko'rish" imkonini beradi. Bu esa ularga o'zlarini va o'zlari ijro etayotgan qahramonlarini chetdan kuzatishga zamin yaratadi.

Ilmiy manbalarda keltirilishicha, rolli o'yin metodi o'quvchilarda bir-birlarini tushunish, hamjihatlikda, do'stona munosabatdagi muhitda yashash ko'nikmalarini ham shakllantiradi.

Bu metodlar o'quvchilarni tezkorlikka, mavzuni sinchkovlik bilan o'rganishga va darsning qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi. Shuni unutmaslik kerakki, adabiyot o'qituvchisi ushbu usullarni asarning mohiyatini teran anglatishga xizmat qildirishi lozim. Zero, noto'g'ri tanlangan metod o'quvchilarni chalgitadi.

Shuni alohida ta'kidlash mumkinki, maktab ta'limi tizimida adabiyot darslarida axborot texnologiyalarining qo'llanilishi ta'lim sifati va samaradorligining ortishiga olib keladi. Kompyuterning multimedial vositalari yordamida dars o'tish ham yangilik, ham yengilliklar yaratadi: zarur ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallarning hammasi kompyuter orqali tayyorlanadi. Bu o'qituvchining darsga tayyorgarlik vaqtini ham ko'rgazmali qurollarga sarflanadigan mablag'ni tejaydi. Shuningdek, o'quvchilar yangi bilimlarni olish uchun faol ishtirok etadilar va fanga qiziqishlari ortadi. Kompyuter ilmini bilish, uning imkoniyatlaridan oqilona foydalanish bugungi kun talabidir.

XULOSA

Umumta'lim maktablarida adabiy ta'lim jarayonini zamonaviy talablarga javob bera oladigan darajada takomillashtirish zarur.

Yozuvchilar biografiyasini o'rgatishda adibning tarjimai holini so'zlab berish kabi eski an'ana hozirgacha saqlanib kelayotir. Aslida, bolalarga yozuvchining milliy adabiyotda tutgan o'rnini belgilab berish zarur. Shu sababli, adib ijodi haqida uning zamondoshlari, buyuk siyosatchilar, taniqli tanqidchilar bildirgan fikrlarni bolalar ongiga yetkazish zarur. Shuningdek, boshdan-oyoq biografiyani so'zlayvermasdan adib hayotidagi asosiy sanalarga e'tiborni jalb qilish maqsadga muvofiqdir.

Darslikda har bir yozuvchining eng yaxshi asarlaridan namuna berilgan. O'sha asarni o'rganish masalasida yana o'qituvchi eski an'ana bo'yicha matnni o'qib, uni qayta hikoya qilib bersa, bolalarda badiiy asardagi jozibani anglash hissi uyg'onmaydi. Shu sababli badiiy matn ustida o'quvchining mustaqil fikr yuritishiga asosiy e'tiborni qaratish lozim. Buning uchun o'qituvchi badiiy matn jozibasini ta'minlovchi asosiy nuqtalarni topishga bolalarni jalb qila bilishi kerak.

Biz yuqorida matnni tahlil qilish usullaridan ayrimlarini bayon qildik. Muallim ana shu andozalarga mustaqil yondashib, o'qitish jarayoniga ijodiy munosabatda bo'lishi zarur. Shu usul takomillashtirilsa, asosiy e'tibor o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini, og'zaki va yozma nutq madaniyatini rivojlantirishga yo'naltirilsa, kutilgan natija samarali bo'ladi. Shundan kelib chiqqan holda quyidagi tavsiyalarga alohida e'tibor berish lozim:

1. Adabiy ta'lim jarayonida o'qituvchi bolalarni faol subyektga aylantirishi, ular mashg'ulot jarayonida o'qituvchi bilan birga fikrlab muammolarga aralashib, o'z fikr-mulohazalarini bayon qilishlariga imkoniyat yaratishi kerak.

2. O'quvchilarda badiiy adabiyotga qiziqishni oshirib, kitobxonlikka jalb qilish har jihatdan muhim. O'quvchilarda kitobxonlikka havas uyg'onsa, ularning orfografik va orfoepik ko'nikmalari yuksalib boradi.

3. O'quvchilarda yozma savodxonlikni takomillashtirish uchun

ta'limiy insholar tashkil qilishni yo'lga qo'yish muhim vazifalardan biridir.

Bolalar o'zlari sevgan kitoblar bo'yicha erkin insholar yozishsa yanada yaxshi. Buni an'anaga aylantirishda o'qituvchi bosh-qosh bo'lishi kerak.

4. O'quvchilarga she'r yodlatish, ifodali o'qish malakalarini oshirish, yosh ijodkorlar to'garagini tashkil qilish ham badiiy adabiyotga havasni yanada oshiradi.

5. O'quvchilarni folklor asarlarini o'qishga jalb qilish, xalq orasidagi talantli ijodkorlardan xalq ijodiyotiga oid asarlarni yozib olishga odatlantirish, maktabda folklor burchagi tashkil qilish ham bu sohada yaxshi samaralar beradi.

6. Odatda, V-VI sinf o'quvchilari ertak aytish, uni tinglash, to'pishmoq aytish kabi qadimiy an'analarga havasmand bo'lishadi. Shu an'anadan o'qituvchi samarali foydalansa folklor asarlarini o'qish va to'plash ishlari o'z-o'zidan yo'lga tushib ketadi.

7. Yoshlarni kundalik yozishga, qiziqarli voqealarni yangiliklarni qayd qilib borishga odatlantirish ham ularning yozma nutqini oshirishda, ijobiy qobiliyatlarini rivojlantirishda yaxshi samara beradi.

8. Bolalarni darsdan tashqari o'tkaziladigan tadbirlarga jalb qilish, mahalliy shoirlar, san'atkorlar bilan uchrashuvlar o'tkazish, muloqotlar o'tkazish ham adabiyot sirlarini anglashda yaxshi natijalarga olib keladi.

9. Hozirgi davrda axborot-resurs vositalari yuksak darajada rivojlanib ketdi. Bolalarni kompyuter vositasida turli multimediyalar, videoyozuvlar, videofilmlar bilan tanishtirish orqali ham adabiyotni anglash va sevishtga jalb qilish imkoniyati yuzaga keldiki, bu imkoniyatdan muntazam foydalanish lozim.

ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. // Barkamol avlod orzusi. – T.: "Sharq", 1998. – B.137.
2. Karimov I.A. Maktabgacha ta'lim deganda faqat bog'cha tushuniladimi? // Barkamol avlod orzusi. – T.: "Sharq", 1998. – B. 71-72.
3. Karimov I.A. Ozod va Obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. – T.: "O'zbekiston", 2000. – B. 438.
4. Vohidova R. Mustahkamlash darsida o'quvchilarning o'z-o'zini baholashi // TAT. 2007. №1.
5. Dolimov S. Ta'limiy bayon va insho. O'rta va oliy maktab. – Toshkent.: 1960. – B.102.
6. Ziyodova T. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish. – T.: 2000. – B.163.
7. Zunnunov A., Avliyoqulov A. Pedagogik tadqiqot usullari. – T.: 2002.
8. Ibodullayeva G. Adabiyot o'qitish jarayonida o'quvchilarga mustaqillik mafkurasini singdirish // Til va adabiyot ta'limi. 1996. №3. 12-16-betlar.
9. Isroilov M. Ta'limda interfaol metodlar (II Toshkent Davlat tibbiyot institutida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish katta samara bermoqda) "Ma'rifat". 2001 yil 14 sentabr.
10. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning yetakchi tamoyillari // "Til va adabiyot ta'limi". 1996. №3. – B. 40-44.
11. Madayev O. Insho qanday yoziladi? – T.: "O'qituvchi", 1991. 146-bet.
12. Mamatova G. Ilg'or texnologiyalardan foydalanish // Boshlang'ich ta'lim. 2004. №2. 22-23-betlar.
13. Matchonov S. Kitob o'qishni bilasizmi? – T.: "O'qituvchi", 1993.
14. Mirzaahmedov A. O'quvchilar faolligini oshirishda noan'anaviy darslar // Til va adabiyot ta'limi. 1996. 54-56-betlar.
15. Mirqosimova M.M. O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini

shakllantirish va takomillashtirish usullari. Ped. Fan. Ilmiy daraj. olish uchun taqdim qilingan diss. – T.: 1995. – B.280.

16. Matjon S. She'riy asar tahlili // Til va adabiyot ta'limi. 1995. №2 – B.10-14.
17. Mustafoyeva M. "Zumrad va Qimmat" (spektakl-dars) // TAT. 1995. №2. – B.75-82.
18. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning yetakchi tamoyillari // TAT 1996. №3. – B. 40-45.
19. Mirzaahmedov A. O'quvchilar faolligini oshirishda noan'anaviy darslar // TAT, 1996, №3. – B.54-57.
20. Mirkarimova B. M.Yusufning Vatan haqidagi she'rlari ustida ishlashda kompyuterdan foydalanish // TAT, 2007. №1. – B.23.
21. Madayev O. Yaminova S. Ssenariy yozish vositasida o'quvchilarda mustaqillikni shakllantirish // TAT. 1995. №3-4.
22. Matjon S. She'riy asar tahlili // TAT 1995, №2.
23. Matjonov S. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar – T.: "O'qituvchi", 1996.
24. Mirqosimova M. Badiiy tahlil usullari (metodik tavsiyalar). – T.: "Muallif", 1993.
25. Meliqo'ziyev M. Badiiy asar timsollarini muammoli tahlil qilish orqali o'quvchi shaxsiy nuqtayi nazarini shakllantirish // TAT. 2007. №1.
26. Nurmatova M. 5-sinfda O'. Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasini o'rganish // TAT, 1996, №3. – B.65-69.
27. Omonov X. Furqat ijodi yuzasidan muloqot dars // TAT. 1995, №3-4.
28. To'xliyev B. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. – T.: TDPU nashriyoti, 2008. – B. 110.
29. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. – B.168.
30. Yo'ldosheva T. O'quvchilarda ijodiy faoliyatni shakllantirish // TAT, 2006. №3. – B.22.
31. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: "O'qituvchi", 1996.

32. Yo'ldoshev Q. O'qituvchi kitobi. (Metodik qo'llanma) – T.: “O'qituvchi”, 1997.

33. Yo'ldoshev Q. va boshqalar. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik-majmua. – T., “Yangiyo'l Poligraf servis”, 2014.

34. G'oziyev E. Tafakkur psixologiyasi. – T.: “O'qituvchi”. 1990. – B. 180.

MUNDARIJA

Kirish.....3

1-qism. Xalq og'zaki ijodiyoti asarlarini o'rgatish usullari

Darslikdagi keltirilgan maqollarni o'rgatish usullari.....5
 Ertaklarni tahlil qilish jarayonida o'quvchilarni obrazli fikrlashga o'rgatish usullari14
 V sinfda “Uch og'a-ini botirlar” ertagini o'rganish20
 V sinfda adabiy ertaklarni o'rganish26
 VI sinfda xalq qo'shiqlarini o'rganish29

2-qism. Yozuvchilar hayoti va ijodini o'rgatish usullari

Bobur ijodini o'rgatish tajribasidan32
 V sinfda H.Olimjon ijodini o'rganish34
 Zulfia hayoti va ijodini o'rgatish tajribasidan37
 V sinfda G'afur G'ulom hayoti va ijodini o'rganish.....44

3-qism. O'quvchilarda ifodali o'qish malakasini shakllantirish

Bolalarni ifodali o'qishga o'rgatish51

4-qism. Dramatik asarlarni o'rgatish usullari.....55

Xulosa66
 Adabiyotlar68

Ilmiy-nashr

M.Pirnazarova, N.Sobirova, N.Matyazova

**UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA ADABIYOT
O'QITISHNING AYRIM MASALALARI**

Muharrir:
Dilshod Rajab

Texnik muharrir:
Fayzullo Azizov

Musahhih:
Nodira Egamqulova

«Turon zamin ziyo» nashriyoti
Litsenziya: AI № 171.2010 yil 11 iyun
Toshkent sh. Yunusobod-14.27/35

Terishga 2015-yil 08-avgustdaberildi.
Bosishga 2015-yil 09-oktabrda ruxsat etildi.
Bichimi: 60x84 1/16. «Virtec Times» garniturasida
ofset bosma usulida ofset qog'ozida bosildi.
4,5 shart.b.t. 4,185 hisob nashr.tab.
Adadi 300 nusxa. 134-son buyurtma.

“Muharrir” nashriyoti matbaa bo'limida chop etildi.
100060, Toshkent shahri, Elbek ko'chasi, 8-uy.
E-mail: muharrir@list.ru.

9 789943 453937



ISBN 978-9943-4539-3-7

6874



5008.02